

O`ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIIY VA O`RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI

BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI

FILOLOGIYA FAKULTETI

O`ZBEK ADABIYOTI KAFEDRASI

BITIRUVCHI KURS TALABASI

TOG`BOYEVA RA'NO KOMILJON QIZIning

«ODIL YOQUBOV TARIXIY ROMANLARIDA XRONOTOP»

mavzusidagi

*5 120 100 –Filologiya va tillarni o`qitish (o`zbek tili) yo`nalishida bakalavr
akadem darajasini olish uchun yozgan*

BITIRUV MALAKAVIY ISHI

(2017-2018-o`quv yili)

Imiy rahbar: filologiya fanlari nomzodi, dotsent

RAJABOV D.Z.

Buxoro – 2018

O`ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O`RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI

BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI FILOLOGIYA FAKULTETI

O`ZBEK ADABIYOTI KAFEDRASI

“Himoyaga ruxsat etilsin”

Fakultet dekani _____ A.A.Haydarov

“ _ ” _____ 2018-yil.

BITIRUVCHI KURS TALABASI

TOG`BOYEVA RA'NO KOMILJON QIZIning

«ODIL YOQUBOV TARIXIY ROMANLARIDA XRONOTOP»

mavzusidagi

***5 120 100 –Filologiya va tillarni o`qitish (o`zbek tili) yo`nalishida bakalavr
akadem darajasini olish uchun yozgan***

BITIRUV MALAKAVIY ISHI

(2017-2018-o`quv yili)

Ilmiy rahbar: filologiya fanlari nomzodi, dotsent

RAJABOV D.Z.

Rasmiy hakam: filologiya fanlari nomzodi, dotsent

MURODOV G`.N.

Buxoro – 2018

«Ma'qullayman» _____

«Tasdiqlayman» _____

Ilmiy rahbar: f.f.nomzodi,

O'zbek adabiyoti kafedrası

dotsent D.Z.Rajabov

mudiri Sh.N.Ahmedova

« » _____ 2017-y.

« » _____ 2017-y.

BuxDU filologiya fakulteti bitiruvchisi Tog'boyeva Ra'no Komiljon qizining

«**Odil Yoqubov tarixiy romanlarida xronotop**» mavzusidagi bitiruv malakaviy ishi
ustida olib borishi lozim bo'lgan ishlar yuzasidan

TOPSHIRIQLAR REJASI

Faoliyat nomi	Ishning qisqacha mazmuni	Bajarilish vaqti	Bajarilgan ishlar haqida ilmiy rahbar xulosasi (imzo)	Talaba (imzo)
Nazariy faoliyat	1. Mavzu bo'yicha zaruriy ilmiy, ilmiy-metodik materiallarni to'plash, o'rganish	sentabr		
	2. Ilmiy adabiyotlarini mavzu nuqtayi nazaridan o'rganish	sentabr		
	3. Mavzu bo'yicha ilmiy manbalarni taqqoslash. Adabiyotlar ustida ishlash. To'plangan materiallarni sistemalashtirish	oktabr		
BMI ustida ishlash	1. BMI rejasini tuzish. Tadqiqotning kirish qismini tayyorlash	noyabr		
	2. I bob paragraflari ustida ishlash	dekabr		
	3. II bob paragraflari ustida ishlash	yanvar		
	4. Ishni yakunlash, tahrir etish va oqqa ko'chirish	fevral		
	5. Xulosa (tahlillar natijasida umumlashmalar va xulosalarni yoritish)	mart aprel		
	6. Adabiyotlar ro'yxatini tartibga solish			

BMI ni rasmiy- lashtirish	Dastlabki himoya jarayonida qatnashish	may		
BMI ni himoya qilish		iyun		

Bitiruvchi kurs talabasi

Tog`boyeva Ra'no

Ilmiy rahbar

Rajabov Dilshod

Buxoro davlat universiteti filologiya fakulteti
o`zbek adabiyoti kafedrasining 1-yig`ilishi bayonnomasidan

KO`CHIRMA

29-avgust, 2017-y.

Qatnashdil: kafedraning barcha

a`zolari

K U N T A R T I B I

Bitiruv malakaviy ishlari mavzularining muhokamasi, tasdig`i hamda ilmiy rahbarlarni tayinlash.

Kafedra qaror qiladi:

4-kurs talabasi Tog`boyeva Ra`noning bitiruv malakaviy ishi mavzusi «**Odil Yoqubov tarixiy romanlarida xronotop**» shaklida tasdiqlansin.

Bitiruvchi kurs talabasi Tog`boyeva Ra`noning malakaviy bitiruv ishiga f.f.nomzodi, dotsent Rajabov Dilshod ilmiy rahbar etib tayinlansin.

Yig`ilish raisi

Sh.N. Ahmedova

Yig`ilish kotibasi

G.Y.Samandarova

Buxoro davlat universiteti filologiya fakulteti
o`zbek adabiyoti kafedrasining navbatdan tashqari yig`ilishi
bayonnomasidan

KO`CHIRMA

Buxoro sh.

5-may, 2018-y.

Qatnashdi: kafedraning barcha

a`zolari

K U N T A R T I B I

4-kurs talabasi Tog`boyeva Ra'noning «**Odil Yoqubov tarixiy romanlarida xronotop**» mavzusidagi bitiruv malakaviy ishi muhokamasi

Kafedra qaror qiladi:

4-kurs talabasi Tog`boyeva Ra'noning «**Odil Yoqubov tarixiy romanlarida xronotop**» mavzusidagi bitiruv malakaviy ishi «sinov himoyasidan o`tdi» deb hisoblansin va rasmiy himoyaga tavsiya etilsin.

Mazkur bitiruv malakaviy ishiga taqrizchi etib filologiya fanlari nomzodi, dotsent G`.N.Murodov tayinlansin.

Yig`ilish raisi

Sh.N.Ahmedova

Yig`ilish kotibasi

U.To`rayeva

Fakultet ilmiy kengashning 2018- yil may

bayonnomasi bilan tasdiqlangan

BuxDU filologiya fakulteti 5120100 - Filologiya va tillarni o`qitish (o`zbek tili) ta'lim yo`nalishi bitiruvchisi Tog`boyeva Ra'noning «**Odil Yoqubov tarixiy romanlarida xronotop**» mavzusidagi bitiruv malakaviy ishiga DAK

XULOSASI

№	Belgilangan me'yorlar			
1	BMIning hajm va talab bo'yicha rasmiylashtirilganligi (me'yor: 45 betdan kam bo'lmasligi kerak)	talabga javob beradi–10 ball	talabga qisman javob beradi–7 ball	talabdan chetga chiqish holatlari mavjud–4 ball

2	Mavzuning davlat va universitet grant dasturlari asosida yoki dolzarb muammolar bo'yicha tanlanganligi	davlat dasturiga kirgan-8 ball	grant loyihasi bo'yicha - 7 ball	BuxDU dasturi bo'yicha-6 ball yoki dolzarb muammolar bo'yicha-5 ball
3	Mavzu dolzarbligining asoslanganligi	yetarli darajada asoslangan-5b.	yetarli asoslan- magan-3b.	noaniq -2 ball
4	Maqsad va vazifalarning aniq ifodalanganligi	aniq - 7 ball	to'liq aniq emas - 5 ball	aniq emas - 3 ball
5	BMIda ilmiy tekshirish metodla-ridan foydalanganlik darajasi	to'la- 7 ball	qisman - 5 ball	yetarli emas-3 ball
6	Olingan natijalarning yangiligi va ishonchlilik darajasi	natija yangi - 8 ball	ilgari olingan - 6 ball	to'la ishonchli emas-3 ball
7	BMIning xulosa qismida tavsiyalar berilganligi; ijtimoiy sohada qo'llashga (ta'lim, atrof-muhitni himoya qilish, ma'naviy-ma'rifiy...)	bevosita ishlab chiqishga tavsiyasi bor -6 ball	tavsiya qilingan-5 ball	tavsiya yo'q- 3 ball
8	Bitiruvchining mavzu bo'yicha olingan natijalarini tanqidiy baholanganligi darajasi	aniq-8 ball	to'la aniq emas - 6 ball	tanqidiy baholanmagan-4 ball
9	Ishning ilmiy xarakteri	ilmiy tadqiqotlar asosida - 8 ball	aralash shaklidan - 5 ball	referativ xarakterdan - 3 ball
10	Adabiyotlardan foydalanganlik darajasi	ilmiy-amaliy jurnallar, monografiya, yetakchi olimlar asarlaridan to'la	ilmiy adabiyotlar kam foydalanilgan - 6 ball	faqat darslik, ma'ruza matnlari, o'quv qo'llanma va ma'lumotnomalardangina foydalanilgan -

		foydalanilgan - 8 ball		4 ball
11	Bitiruvchi taqdimotiga baho	a'lo – 10 ball	yaxshi – 7 ball	qoniqarli – 6 ball
12	Berilgan savollarga javobi	to'liq – 8 ball	o'rta – 6 ball	qoniqarli- 4 ball
13	BMIni tashqi taqrizchi tomonidan baholanishi	a'lo – 7 ball	yaxshi – 6 ball	qoniqarli – 5 ball
14	BMlga qo'yilgan yakuniy ball:		Bahosi:	

Eslatma: Har bir ball bo'yicha aniqlangan ballning tagiga chizib belgilanadi.

DAK raisi: prof. Shermatov A.

A'zolari: 1. dots.Haydarov A.A. (rais muovini)

2. prof.Ahmedova Sh.N. (a'zo)

3. dots.Rajabova M.B. (a'zo)

4. dots.Davronova Sh.G` (a'zo)

5.

6.

-iyun, 2018-y.

**Filologiya fakulteti 5120100-Filologiya va tillarni o`qitish (o`zbek tili)
ta`lim yo`nalishi bitiruvchisi Tog`boyeva Ra`noning «Odil Yoqubov tarixiy
romanlarida xronotop» mavzusidagi bitiruv malakaviy ishi**

ANNOTATSIYASI

Istiqlol yillarida ma'naviy hayotimizda katta yangilanishlar bo'ldi. Barcha sohalar qatori adabiyotimiz ham taraqqiy etdi. Tarixni o'rganish, qayta tiklash va tarixiy mavzuda asarlar yaratishga e'tibor kuchaydi. Malakaviy bitiruv ishimizning asosiy tadqiq yo'nalishi ham XX asr o'zbek adabiyotining eng sara namunalaridan sanalgan Odil Yoqubovning "Ko'hna dunyo" va "Ulug'bek xazinasi" kabi tarixiy mavzuda yozilgan romanlarida zamon va makon tushunchalarini o'rganish. Tadqiqotdan asosiy maqsad adib asarlarida ilgari surilgan g'oyalar, obrazlar va ularning ma'naviy olamini tarixiy davr nuqtai nazaridan chuqur tahlil etib, badiiy xronotop masalasiga alohida e'tibor qaratishdir. Buning barobarida tarixiy romanlarda xronotopning o'rnini, ahamiyatini o'rganish ishimizning asosiy vazifalaridan biri. Odil Yoqubov tarixiy haqiqatga e'tibor qaratib, o'tmish voqealarini badiiy zamon va makon konsepsiyasida tasvirlashda o'ziga xos uslubni qo'llaydi. Bitiruv malakaviy ishimizning maqsad va vazifalaridan kelib chiqib, hozirgi adabiyotshunoslik erishgan ilmiy-nazariy yutuqlar va yangicha qarashlarga tayandik. Adib ijodini o'rganishda bir qator tadqiqot, ilmiy ishlar, maqolalardan foydalandik. Jumladan, ushbu bitiruv malakaviy ishimizda M.Baxtin, M.Qo'shjonov, O.Sharafiddinov, Q.Yo'ldoshev, U.Jo'raqulov, A.Nosirov, A.To'ychiyev, K. Qarshiyev, E. Xudoyberdiyev singari olimlarning ilmiy fikr va xulosalaridan hamda A.Xolmurodovning "O.Yoqubov asarlarida psixologizm", mavzusidagi nomzodlik ishi, T.J. Qurbonovning "Odil Yoqubovning portret yaratish mahorati" nomli dissertatsiyasi, Z.A.Rahimova "O.Yoqubovning "Ko'hna dunyo" romani poetikasi" mavzusidagi nomzodlik ishlaridan foydalandik.

Ilmiy rahbar

Talaba

D.Z. Rajabov

R.Tog'boyeva

BuxDU filologiya fakulteti 5120100 - Filologiya va tillarni o`qitish (o`zbek tili) ta'lim yo`nalishi bitiruvchisi Tog`boyeva Ra'noning «Odil Yoqubov tarixiy romanlarida xronotop» mavzusidagi bitiruv malakaviy ishiga ilmiy rahbar

XULOSASI

O'zbek adabiyotining ilmiy-nazariy asoslari tomonlariga diqqat qaratgan etuk adabiyotshunoslar epik turning o'ziga xos jihatlari haqida ko'landir fikrlarni aytish imkoniga ega bo'lishgan. Shu nuqtai-nazardan qaralganda O. Yoqubov ijodida xronotop masalasiga bag'ishlangan ushbu malakaviy bitiruv ishi dolzarblik kasb etadi.

R. Tog'boyeva ushbu mavzu ustida 1-kursdan boshlab izlanishlar olib boradi. 2017 yil BuxDU professor-o'qituvchilar va talabalarning an'anaviy ilmiy-anjumanida aynan BMIga daxldor mavzu bilan chiqish qilib faxrli birinchi o'rinni egalladi. Mavzu yuzasidan tezis va maqolalar chop ettirdi. Demak, R. Tog'boyeva o'zi ishlayotgan mavzuni to'liq tushunadi. Xronotop masalasiga daxl qilgan jahon va o'zbek adabiyotshunoslarning ishlari bilan yaqindan tanish. Shu bois talaba o'z fikrlarini ilmiy-ijodiy bayon qilish imkoniyatiga ega. O.Yoqubovning ijod laboratoriyasiga kirib borishi, «Ulug'bek xazinasini» va «Ko'hna dunyo» romanlarini tahlilga tortishga intilishi e'tiborlidir.

BMI ning kirish qismida rasmiy talablar to'liq bajarilgan, biri-ikkinchisini talab qilish boblarda fikrlar aniqligi seziladi. Adabiyotlar ro'yxati va xulosa maqsadga muvofiq. Ish ba'zi juziy kamchiliklarni himoyaga qadar bartaraf etish mumkinligini inobatga olib, ishni himoyaga tavsiya etaman.

Ilmiy rahbar:

D.Z.Rajabov

Bitiruvchi kurs talabasi R.Tog`boyevaning izlanishlari bitiruv malakaviy ishlari oldiga qo`yilgan talablarga javob beradi. Mazkur bitiruv malakaviy ishini ilmiy rahbar sifatida yakunlangan ish deb hisoblayman va uni rasmiy himoyaga tavsiya etaman.

Ilmiy rahbar

Rajabov D.Z.

o`zbek adabiyoti kafedrası dotsenti, f.f.n.

-may, 2018-yil.

BuxDU filologiya fakulteti 5120100 - Filologiya va tillarni o`qitish (o`zbek tili) ta`lim yo`nalishi bitiruvchisi Tog`boyeva Ra`noning «Odil Yoqubov tarixiy romanlarida xronotop» mavzusidagi bitiruv malakaviy ishiga rasmiy hakam

TAQRIZI

Rasmiy hakam

Murodov G`.N.

o`zbek adabiyoti kafedrası

dotsenti, filologiya fanlari nomzodi

Kirish.

I. Bob.

Badiiy adabiyotda zamon va makon tushunchasi.

1.1. Badiiy adabiyotda xronotopning ahamiyati.

1.2. Zamon va makonning obrazlarda ifodalanishi.

II. Bob.

Tarixiy romanlarda badiiy zamon va makon uygʻunligi.

2.1. Odil Yoqubovning “Koʻhna dunyo ” romanida tarixiy makon va zamonni tasvirlash mahorati.

2.2. Odil Yoqubovning “Ulugʻbek xazinası” romanida badiiy zamon hamda makon talqini.

III. Xulosa.

IV. Foydalanilgan adabiyotlar roʻyxati.

KIRISH.

Mavzuning dolzarbligi. Mamlakatimiz mustaqillikka erishgach maʼnaviy hayotimizning barcha sohalarida tub burilishlar yuz berdi. Tabiiyki, adabiyotshunoslik sohasi ham bundan mustasno emasdi. Istiqlol sharofati bilan azaliy qadriyat va urf-odatlarimizni, milliy mentalitetimizni qayta tiklash va

tariximizni chuqur o'rganish, badiiy durdonalarimizni mafkura tazyiqidan xoli ravishda ilmiy jihatdan qayta tadqiq etish va ularning haqiqiy badiiy qiymatini tiklashga ahamiyat qaratildi. Bu o'z navbatida ilm va fanning boshqa sohalari qatorida adabiyot vakillari oldiga ham ulkan va mas'uliyatli vazifalar yukladi. Buning barobarida adabiyotshunoslik sohasidagi izlanishlar va badiiy adabiyotda yaratilayotgan yangi ijod namunalari g'oyaviy jihatdan yangicha mohiyat kasb eta boshladi. Adabiyot birinchi galda insoniyat ravnaqi, uning ma'naviy kamoloti uchun xizmat qilmog'i darkor.

Muhtaram Prezidentimiz Mirziyoyev Sh. M. mamlakatimiz ijodkor ziyolilari vakillari bilan bo'lib o'tgan uchrashuvda «Biz mana shu o'ta muhim yo'nalishdagi ishlarimizni bundan keyin ham qat'iyat va izchillik bilan davom ettiramiz. Nega deganda, adabiyot va san'atga, madaniyatga e'tibor—bu, avvalo, xalqimizga e'tibor, kelajagimizga e'tibor ekanini, buyuk shoirimiz Cho'lpon aytganidek, adabiyot, madaniyat yashasa, millat yashashi mumkinligini unutishga bizning aslo haqqimiz yo'q», deya ta'kidlab o'tganligi fikrimizni quvvatlantiradi. “Adabiyot va san'at, madaniyatni rivojlantirish—xalqimiz ma'naviy olamini yuksaltirishning mustahkam poydevoridir”¹. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2016 yil 13-maydagi PF-4797-son “Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti faoliyatini tashkil etish to'g'risida”gi, 2017-yil 7-fevraldagi PF-4947-son “O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida”gi, 2017-yil 14-sentabrdagi PF-5106-son “Yoshlarga oid davlat siyosati samaradorligini oshirish va O'zbekiston yoshlar ittifoqi faoliyatini qo'llab-quvvatlash to'g'risida”gi Farmonlari, 2017 yil 20-apreldagi PQ-2909-son “Oliy ta'lim tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida”gi Qarori hamda mavzuga oid boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda ushbu bitiruv malakaviy ishi muayyan darajada xizmat qiladi.

Birinchi Prezidentimiz I.A.Karimov ta'kidlaganlaridek, “Adabiyot, so'z san'ati azaldan xalq qalbining ifodachisi, haqiqat va adolat jarchisi bo'lib keladi.

¹ Шавкат Мирзиёев. Адабиёт ва санъат, маданиятни ривожлантириш — халқимз маънавий оламини юксалтиришнинг мустаҳкам пойдеворидир. Халқ сўзи, 2017 йил, 4 август.

Xususan, mustaqillik yillarida yurtimizda ma'naviyatimizning g'oyat muhim va uzviy qismi bo'lgan adabiyotni rivojlantirish, shoir va yozuvchilarimizning mehnatini rag'batlantirish bo'yicha amalga oshirilayotgan ishlar o'z hosilini berayotganini badiiy adabiyotimizning mavzulari ko'lami jihatidan ham, janrlar nuqtayi nazaridan ham rang-barang bo'lib borayotgani, adabiyot maydonida yangi-yangi nomlar paydo bo'layotgani kitobxon xalqimizni albatta quvontiradi"². Bu so'zlar istiqlool davrida badiiy ijod maydonida o'zbekona ruhiyatni va umuminsoniy g'oyalarni targ'ib etuvchi yozuvchi va shoirlar safi ko'payib borayotganini tasdiqlaydi. XX asr o'zbek adabiyotida bir qancha sara asarlar yaratildi. Ularda xalqimizning o'tmish hayoti, turmush tarzi, urf-odatlar aks ettirildi. Ammo ular davr mafkurasidan xoli emas edi. Ularda tarixiy zo'rma-zo'rakilik, ba'zi o'rinlarda tarixiy haqiqatlardan chekinish kabi holatlar ko'zga tashlanadi. Zero, tarix va adabiyot xalqni dunyoga tanituvchi va millatning ma'naviy saviyasini ko'rsatib beruvchi eng asosiy vositadir. Bu fikrning tasdig'i sifatida taniqli adabiyotshunos olim Izzat Sultonning quyidagi fikrlarini keltirish mumkin: "Badiiy adabiyot hamma uchun qiziqarli va foydali bo'lgan juda ko'p muammolarni, dastavval, ijtimoiy va axloqiy masalalarni qamrab oladi. Insoniyat psixologiyasi va intilishlarining mushtarakligi tufayli bir xalq vakili tomonidan shu xalqning hayotiga asoslanib yaratilgan asar agar yuqori g'oyaviy va badiiy saviyada yozilgan bo'lsa, o'z-o'zidan yer yuzining hamma joylaridagi kishilar uchun qiziqarli bo'lib qoladi"³.

Ijodkor xalq tilini, tarixini, dunyoqarashini chuqur bilishi, cheksiz so'z boyligiga ega bo'lishi, so'zni his eta olishi, har bir so'zning ma'no nozikligini ilg'ab so'z o'yinlaridan ustalik bilan foydalanishi, so'z qudrati bilan butun bashariyatga ma'naviy ta'sir ko'rsata olishi kerak. Shundagina bu asarlar insoniyat uchun ma'rifat xazinasini bo'lib xizmat qiladi.

²I.A.Karimov. Yuksak ma'naviyat-yengilmas kuch. Toshkent. O'zbekiston. 2008-yil. –B.30.

³Султон И.Адабиёт назарияси.-Т.:Ўқитувчи, 2005й. –Б.47.

XX asr o'zbekadabiyotining yorqin vakillaridan biri O'zbekiston xalq yozuvchisi Odil Yoqubov romanlari milliy romanchiligimizning eng tarovatli va ta'sirchan namunalaridan sanaladi. Ijodkorning asarlarida ilgari surilgan g'oyalar o'zaro mutanosiblik kasb etadi. Adib asarlarida tarix va taqdir, millat va jamiyat, shaxs va ma'naviy olam, tafakkur va mushohada kabi o'nlab jihatlar kitobxonni fikrlashga chorlaydi. Yozuvchi ijodini, uning yuksak mahoratini o'rganish uchun adib ijodida ustivor bo'lgan tarixiy asarlarining o'ziga xos xususiyatlarini tahlil qilish lozim. Yozuvchining milliy romanchligimizda jiddiy izlanishlar olib borib tarixning turfa qirralarini umumlashtirgan hamda o'tmish haqiqatini badiiy aks ettirgan "Ko'hna dunyo" va "Ulug'bek xazinasini" romanlaridagi zamon va makon tushunchalarining bevosita tahlili mazkur mavzuning dolzarbligini belgilaydi.

Tadqiqotning maqsad va vazifalari. Bitiruv malakaviy ishimizdan asosiy maqsad Odil Yoqubovning tarixiy mavzudagi romanlari bilan tanishib chiqish. Jumladan, "Ko'hna dunyo" va "Ulug'bek xazinasini" romanlarining badiiy xususiyatiga e'tibor qaratish hamda ulardagi vaqt va makon masalalariga alohida to'xtalib o'tish.

Ushbu tadqiqotning asosiy maqsadidan kelib chiqib, quyidagi **vazifalarni** bajarish belgilangan:

- Odil Yoqubov romanlaridalaridagi tarixiy davrni o'rganish hamda izohlash;
- Odil Yoqubov romanlarida badiiy xronotop masalasiga alohida e'tibor qaratish;
- Odil Yoqubov asarlaridagi badiiyatning tarixiy haqiqat mundarijasiga munosabati;
- Badiiy asarda xronotop masalasini o'rganishda adabiyotshunoslikning tutgan o'rnini aniqlash;

– Odil Yoqubovning “ Ko‘hna dunyo ” va “Ulug‘bek xazinasini” romanlarida zamon va makon tushunchalarini izohlash.

Tadqiqot metodologiyasi. Muhtaram Prezidentimiz Shavkat Miromonovich Mirziyoyevning milliy istiqlol mafkurasi, adabiy-madaniy meroslar va ularni tahlil qilish va o‘rganishga oid asarlari, adabiyot va kitobxonlikka oid qarashlari, qaror va farmoyishlar tadqiqotning metodologik asosini tashkil etadi. Shuningdek, ishning maqsad va vazifalaridan kelib chiqib, hozirgi adabiyotshunoslik erishgan ilmiy-nazariy yutuqlar va yangicha qarashlarga tayandik. Ushbu bitiruv malakaviy ishimizda M.Baxtin, M.Qo‘shjonov, O. Sharafiddinov, Q.Yo‘ldoshev, U.Jo‘raqulov, A.Nosirov, A.To‘ychiyev, K.Qarshiyev, E.Xudoyberdiyev singari olimlarning ilmiy fikr va xulosalaridan foydalanamiz.

Tadqiqotning o‘rganilish darajasi. Odil Yoqubov ijodi doimo adabiy tanqidchilikning diqqat-e’tiborida bolgan. Adib ijodini o‘rganish bo‘yicha ko‘plab izlanishlar olib borilgan hamda bir qancha ilmiy ishlar yaratilgan. Jumladan, A.Xolmurodovning “O.Yoqubov asarlarida psixologizm” nomli nomzodlik dissertatsiyasida inson, jamiyat va zamon o‘rtasidagi munosabatlarning psixologik tahlili, badiiy haqiqatga aylanish muammolari “Ulug‘bek xazinasini”, “Diyonat”, “Oq qushlar, oppoqqushlar” romanlari asosida o‘rganib tadqiq etilgan. A.S.Ergashevning “Rivoyat va uning badiiy asar syujet, kompozitsiya tuzilishidagi poetik o‘rni” mavzusidagi nomzodlik ishida “Ko‘hna dunyo” romanidagi rivoyatlarning syujet voqealari rivojidadagi o‘rni masalasida fikr yuritilgan, T.J.Qurbonovning “Odil Yoqubovning portret yaratish mahorati” mahorati nomli dissertatsiyasida esa, adibning portret yaratish jarayonida psixologik tasvir vositalaridan foydalanish mahoratini o‘rgangan. Keyingi tadqiqotda Z.A.Rahimova Odil Yoqubovning “Ko‘hna dunyo” romani asosida “O.Yoqubovning “Ko‘hna dunyo” romani poetikasi” mavzuida nomzodlik ishini yoqlagan. Ishda roman syujeti asardagi ruhiyat tasvirining ayrim masalalari to‘g‘risida fikr yuritilgan. Odil Yoqubov ijodi yuzasidan yana bir tadqiqot -

Sh.B.Isabayevaning “O‘zbek tarixiy romanlarida xarakter ruhiyatini tasvirlash usullari” deb nomlangan. Mazkur disseratsiyada o‘zbek tarixiy romanlarida xarakterlarni to‘laqonli yaratishning yetkchi xususiyatlariga bag‘ishlanganligi bilan ajralib turadi. Bulardan tashqari Odil Yoqubov asarlari ustida A.Nosirov, A.To‘ychiyev, O.Iskandarova kabi adabiyotshunoslarimiz izlanishlar olib borib, turli risola va maqolalar yaratganlar.

Tadqiqotning tuzilishi. Bitiruv malakaviy ishimiz kirish, ikki bob, umumiy xulosalar va foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxatidan tashkil topgan bo‘lib, umumiy hajmi 49 sahifadan iborat.

I. Bob.

Badiiy adabiyotda zamon va makon tushunchasi.

1.1.Badiiy adabiyotda xronotopning ahamiyati.

Badiiy adabiyotda yaratiladigan har qanday asar muayyan davr ko'zgusi sanaladi. Asarni aniq belgilangan makon va zamonda o'rganmas ekanmiz asarning mohiyatiga to'liq yetib bora olmaymiz. Badiiy adabiyotdagi zamon va makon kategoriyasining asardagi o'rni qanday, asar mazmun-mohiyatiga qay darajada ta'sir o'tkazadi, uning badiiyatdagi roli nimadan iborat kabi masalalarni yoritish 1-bobimizning asosiy vazifasi sanaladi. Aslida, makon va zamon falsafiy tushuncha bo'lib, borliq hodisalarining yuz berishida hal qiluvchi ahamiyatga ega. "Makon va zamon (fazo va vaqt) – borliqning umumiy yashash shakllari; fazo (makon) dunyoni tashkil etuvchi obyektlar va ulardagi tarkibiy nuqtalarning o'zaro joylashish tartibi, ko'lami va miqyosini ifoda etsa, vaqt (zamon) dunyoda sodir bo'luvchi hodisa va jarayonlarning ketma-ket ro'y berish va davomiyligini ifodalaydi"⁴. Tabiatda biror bir hodisaning ro'yobga chiqishi, boshlanishi va nihoyalanishi uchun makon va zamon naqadar zarur bo'lsa, badiiy adabiyotda ham voqealar zanjiri bir-biriga uzilmas qilib bog'lanishi uchun makon va zamon suv va havodek zarur. Badiiy asarda zamon va makon o'zaro uyg'unlashib yaxlit bir xronotopni vujudga keltiradi. Adabiyotda xronotop tushunchasining paydo bo'lishi va adabiy istiloh sifatida qo'llanishi XX asr rus adabiyotshunosligining yetuk vakili, buyuk olim Mixail Baxtin (1895-1975y) nomi bilan bog'liq. Xronotop ilmiy atama sifatida matematika, fizika, kimyo va biologiya sohalarida qo'llanilgan bo'lsa, XX asrning 30-yillariga kelib M.Baxtin xronotopni adabiyotshunoslikka tadbiq etdi: "Adabiyotda badiiy idrok etilgan zamon va makon aro uyg'unlikni x r o n o t o p (so'zma-so'z tarjimada zamon va makon degan ma'noni bildiradi), deb ataymiz. Ushbu istiloh matematika ilmida Eynshteynning nisbiylik nazaryasi negizida qo'llab kelinadi. Istilohning biz uchun matematikada qo'llanadigan maxsus tushuncha sifatida, ahamiyati yo'q. Uni biz adabiyotshunoslikka (tom ma'noda bo'lmasa ham) istiora o'laroq qabul qilamiz. Muhimi, bu o'rinda, istilohning zamon va makonni uyg'un holatda (zamonni

⁴Фалсафа. Энциклопедик луғат. – Т.: Шарқ. 2010. –Б.271.

makonning to‘rtinchi o‘lchami sifatida) ifodalashidir”⁵. Albatta, Baxtin adabiyotga olib kirgan xronotop bu aniq fanlar sohasidagi fazo va vaqtning aynan ko‘rinishi emas, balki uning badiiyatga tadbiq etilgan (badiiy makon va badiiy zamon) shaklidir. Mixail Baxtin xronotopning badiiy asarning janr xususiyati, syujeti, kompozitsiyasiga bevosita aloqadorligini o‘rganib, o‘z ilmiy izlanishlarida to‘laqonli yoritib berdi. Filologiya fanlari nomzodi, O‘zMU dotsenti Uzoq Jo‘raqulov o‘zining “XX asr jahon adabiyotshunosligi darg‘asi” nomli maqolasida olim va uning izlanishlari haqida quyidagi fikrlarni keltiradi: ”M.Baxtin jahon adabiyotshunosligi tarixida ilk bor badiiy asar xronotopi masalasini keng planda o‘rgandi. Xronotop tushunchasiz esa badiiy ijod, badiiy asar mohiyatini to‘la anglab, talqin etib bo‘lmaydi... Tadqiqot o‘n bo‘limdan tashkil topgan. Ularda xronotop poetikasiga doir deyarli barcha muammolar qamrab olingan. Xronotop roman sujeti, kompozitsiyasi, obrazlari, uslubi, xususan, badiiy adabiyotdagi inson fenomeni bilan uyg‘unligi masalalari tadqiq etilgan”⁶. Olim xronotop atamasini adabiyotshunoslikka tadbiq etarkan, uning badiiy asr negizidagi janr, kompozitsiya, syujet, badiiy matn sutrukturasi, obrazlar poetikasiga oid qismlarni qamrab olishi, badiiy zamon va makonni uyg‘un aks ettirishini hisobga oladi. M.Baxtinning xronotopga oid qarashlari “Estetika va adabiyot masalalari” deb nomlangan kitobiga “Romanda zamon va xronotop shakllari” sarlavhasi ostida kiritilgan. Ushbu tadqiqot 1937-1938-yillarda yozilgan. Oradan 35yil o‘tib (1975-yil) tadqiqotning “Xulosaviy fikrlar” deb atalgan so‘nggi bo‘limi yaratildi. Olim “Xulosa” qismini 1974-yilda “Adabiyot masalalari” jurnalining 3-sonida chop ettiradi. Afsuski, bu bo‘limning qo‘lyozmasi bizgacha yetib kelmagan. Tadqiqotning umumiy hajmi o‘n bosma taboqdan iborat. Olim tadqiqotida eramizning II-VI asrlarida yaratilgan romanlardan to XX asrgacha yaratilgan romanlarni o‘rganadi. Xronotopning roman poetikasiga oid barcha xususiyatlarini yoritadi. “Tadqiqotda jahon adabiyotining muhim davrlari,

⁵Жўрақулов.У.Назарий поэтика масалалари: муаллиф,жанр,хронотоп.Т.:Ғафур Ғулом номидаги нашриёт-матбаа ижодий уйи, 2015, 89–бет. (Кейинги иқтибослар шу асардан олинади ва “Ўша манба” тарзида берилиб, бетлари кўрсатилади).

⁶Jo‘raqulov U. XX asr jahon adabiyotshunosligi darg‘asi. ”Jahon adabiyoti” jurnali// 2013, №7 –Б.22-28.

adabiyotshunoslik tan olgan eng sara asarlari tadqiq etilgan. Bunday ulkan materialni umumlashtirish, tarixiy va nazariy poetika metodologiyalari sintezi asosida talqin etish o'ta ulkan bilim va tajribani talab qiladi. Shu bois tadqiqotda jahon falsafasi, estetikasi, sotsiologiyasi va adabiyotshunosligiga oid ko'plab tushunchalar, terminlar istifoda etilgan"⁷. Tadqiqotda yunon romanidan tortib, fransuz Uyg'onish adabiyotining asoschisi Fransua Rablegacha bo'lgan romanlar yagona sistema asosida o'rganilgan. Tadqiqot manbai bo'lgan romanlarni xronikal tarzda hisoblaydigan bo'lsak, qariyb bir yarim ming yillik davrni o'z ichiga oladi. Shunday uzoq davr romanlarini o'rgangan olim kuzatishlari natijasida roman tiplarini oltiga bo'ldi va shu tiplarga xos xronotop shakllarini yaratdi. Olimning asarlarini o'zbek tiliga tarjima qilgan va uning asarlari asosida ilmiy izlanishlar olib borayotgan adabiyotshunos Uzoq Jo'raqulov M.Baxtinning roman va undagi makon-zamon masalasiga oid qarashlarining ahamiyatli jihatini quyidagicha ifodalaydi: "M.Baxtinning roman va undagi xronotop shakllariga oid tadqiqoti ikki jihatdan muhimdir. Birinchidan, tadqiqotda roman janri tarixiy poetika nuqtai nazaridan umumlashtirilgan... Ikkinchidan, olim insoniyat yaratilgandan beri bir lahza bo'lsin to'xtamagan zamon va makon harakati hayotning badiiylashtirilgan modelini ishlab chiqishga da'vo qiladigan badiiy adabiyotning eng muhim sharti ekanini nazariy jihatdan isbot etgan. Badiiy niyatning tug'ilishidan boshlab, asarning yozilishi, tugallanishi va bundan keyin o'quvchi badiiy aurasida yashashigacha bo'lgan jarayonlar haqida fikr yuritgan"⁸.

"Badiiy niyatning tug'ilishi" ya'ni badiiy asar yozishni niyatni qilgan har bir ijodkor asarni boshlashdan oldin asar voqealari kechadigan aniq bir vaqtni va o'rinni tanlaydi. "Adabiy asar syujetining zanjiri halqalarini tashkil etuvchi voqea-hodisalar muayyan makon va zamonda yuz berishi tabiiydir"⁹. Yozuvchi o'z asaridagi zamon o'lchami va makon ko'lamini o'zi belgilaydi. Insonlar tomonidan

⁷ Михаил Бахтин. Романда замон ва хронотоп шакллари. (Михаил Бахтин кашфиётлари) – Тошкент: "Академнашр", 2015, 41-бет. (Кейинги иқтибослар шу асардан олинади ва "Ўша манба" тарзида берилиб, бетлари кўрсатилади).

⁸ Жўракулов У. Ўша манба, 104-бет.

⁹ Бобоев Т. Адабиётшунослик асослари. Т.: Ўзбекистон. 2002. 133 бет.

vaqtning taqsimlanishi va badiiy asarlarda muayyan zamon-davr chegarasi tanlanishi masalasiga adabiyotshunos olim Bahodir Karimov quyidagicha ta'rif beradi: "Aslida inson aqli bilan chegaralangan zamon-vaqt eralar, asrlar, yillar, fasllar, oylar, haftalar, kunlar, soatlar... kabi butunlikni, astronomik qatorni tashkil etadi. Ijod ahli tasvirlayotgan voqea-hodisalarining ishonchlilik quvvatini oshirish uchun shu astronomik vaqtdan turli yo'sinda o'z dunyoqarashi, mahorati, aql-idrokiga qarab foydalanadi. Boshqacharoq aytganda, badiiy asarda zamon-vaqt fizikaviy mazmundan adabiy-falsafiy mazmunga ko'chadi"¹⁰. Asarning syujeti chizig'i aynan belgilangan vaqt chegarasi va tanlangan hudud doirasida harakatlanadi. Bundan kelib chiqadiki, biz xronotopni qolip – badiiy zamon va badiiy makon qolipi deb qabul qilsak bo'ladi. Badiiy asar xronotopini belgilashda vaqt bosh mezon sanaladi. "Zamon alomatlari makonda ko'rinsa, makon zamonda o'lchanadi va anglanadi. Bunday qorishiq alomatlar oqimida badiiy xronotopning tabiati namoyon bo'ladi"¹¹. Zamon – deganda asr, yil, oy, kun-tun kabilarni nazarda tutsak, makon – deganda mamlakat, saroy, qo'rg'on, ko'cha, uy-joy, mehmonxona singari joylar nazarda tutiladi. "Makon (arxeologiyada) – tosh va jez davrida yashagan ijtimoiy odamlarning mavsumiy, vaqtinchalik boshpanasi yoki doimiy, davriy turar joyi. Qadimgi tosh davri makonlari g'or va o'ngurlarda (Teshiktosh, Obirahmat va b.) buloq bo'ylarida (Ko'lbuloq va b.) joylashgan bo'lib, ular ajdodlarimizning uzoq muddatli boshpanasi hisoblanadi"¹². Badiiy makon tushunchasi bunday qarashdan farq qiladi. Ushbu keltirganimiz iqtibosda MAKONGa umumiy tavsif berilgan. Badiiy asarda makon va zamon kategoriyasi yozuvchi dunyoqarashi hamda adabiy tafakkuri darajasi bilan chambarchas bog'liq holda namoyon bo'ladi. "Adib o'zi qalamga olayotgan davr hamda hudud to'g'risida yetarli ma'lumotga, tugal xulosaga ega bo'lishi kerak"¹³. Abdulla Qodiriyning "O'tkan kunlar" romanida makon va zamon ko'rinishlari rang-barang tarzda tasvirlangan. Yozuvchi joy tasvirlarini xuddi usta musavvir

¹⁰Karimov B. O'tkan kunlar. "Jahon adabiyoti" jurnali// 2013, № 4. - B. 11-14.

¹¹ Михаил Бахтин. Ўша манба, 44-бет.

¹² Ўзбекистон Миллий Энциклопедияси. Т.: Давлат илмий нашриёти, 2000й, 52-бет.

¹³Qur'onov D., Rahmonov B. G'arb adabiy-tanqidiy tafakkuri tarixi ocherklari. Toshkent. 2008, 264-bet.

chizgandek tasvirlaydiki, kitobxon romanni o'qish jarayonida qahramonlar qaysi vaqtda qanaqa joyda turganini go'yo ko'rib turgandek bo'ladi. Asar voqealari bir necha yil davomida Toshkent va Marg'ilon shaharlarida bo'lib o'tadi. Romanda Toshkent va Marg'ilon shaharlari asosiy xronotop sanalsa, O'rda, karvonsaroy, qabriston, hovli, mehmonxona kabi xilma-xil ichki bo'linishlariga ega kichik xronotoplar ham mavjud. Shulardan biri Mirzakarim qutidorning hovlisi: "Poyafzal bozori va uning burchagidagi bir havli... Havlining kun chiqarida kunbotishga qaratib soling'an, uncha maxtarliq bo'lmasa ham ammo zamonasining olding'i binolaridan hisoblang'an bir ayvon bir uyga ko'z tushadir. Sahn va binolar kishi zotidan bo'sh, shuning uchun bu havli oilaning tashqarig'i qismi – mehmonxona ekanligi onglashinur. Sahnning tun va kunbotar jihatlari kichkina hujralar bilan o'ralg'an va bu hujralarning bacha eshiklari yopiq va qulflang'an holda bo'lib mollar bilan bandligi va uy egasining davlatlik kishi bo'lg'anlig'i bilinur..."¹⁴. Qodiriy tasvirlagan bu joy qutidorning tashqi hovlisi edi. Ma'lumki, qadimda o'zbek xonadonlari ichki va tashqi hovlidan iborat bo'lgan. Ichki hovlidagi uylar oila a'zolari va asosan ayol mehmonlar uchun mo'ljallangan bo'lsa, tashqi hovli xonadonga keladigan chet kishilar uchun mo'ljallangan. Bugungi kun xonadonlari bu holatlardan ancha chekinilgan holda qurilmoqda. Lekin Qodiriy qalamga olgan XVIII asr uylarining asosiy ko'rinishi shunday edi. Bundan asosiy maqsad xonadon iffatini sanalgan ahli ayollarni begona ko'zlardan saqlash. O'sha zamon kishilari uchun odatiy sanalgan bu holat bugungi zamon kitobxonini biroz taajjublantirsa ajabmas. Qodiriy birgina hovli tasviri orqali o'quvchiga o'sha davr arxitekturasi, arxitektura orqali xonadon egalarining jamiyatdagi ijtimoiy mavqeyi hamda iqtisodiy ahvolidan boxabar qilib boradi. Makon ko'rinishini zamonga moslashtiradi, zamon ruhini makonga singdiradi. Zamon va makonni o'zaro monand tasvirlash uchun yozuvchida, avvalo, mahorat so'ngra bilim va malaka, izlanuvchanlik xususiyatlari bo'lishi kerak. Ijodkor real hayotni badiiyatga shu qadar ehtiyotkorlik bilan olib kirishi

¹⁴Abdulla Qodiriy. Tanlangan asarlar. – Toshkent. "Sharq" nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosh tahririyati, 2014, 23-bet.(Keyingi iqtiboslar shu asardan olinadi va "O'sha manba" tarzida berilib, betlari ko'rsatiladi).

kerakki, ularning qorishiq holatidan badiiy hayot yaralishi kerak. Yozuvchi asarda badiiy to‘qima va reallikni bir qolipga sig‘dira olsa - bu asar asrlar osha yashaydi. “O‘tkan kunlar” romanini yaratishda Abdulla Qodiriy o‘tmish hayot va badiiylik o‘rtasidagi tarozini teng tuta olganki, uning asari bugungi kunda ham eng ko‘p o‘qiladigan asarlar safida turibti. “O‘tgan kunlar” bamisoli ulkan va tiniq ko‘zgu, Qodiriy unda o‘zbek millatining tarixi, milliy turmushi-tarzi, urf-odatlari, ruhiy-ma’naviy dunyosi, bo‘y-basti, qiyofasini keng ko‘lamda, aniq-ravshan gavdalantiradi”¹⁵. Qodiriy romani shunchaki xayolot hodisasi emas, u har bir hodisa kechadigan o‘rinni, makonni sinchiklab o‘rganadi. Hatto biz yuqorida ta’rifini keltirgan qutidorning hovlisi, poyabzal bozori real hayotda mavjud bo‘lgan joylar. Bu joy hozirgi kunda ham bor bo‘lib, Marg‘ilon shahrining markazidan Go‘ravval tarafga ketishdadir. Kumushbibining mahallasi ham shu yerda. Shu ko‘chadan ozgina yuqoriga yurilsa, asarda tasvirlangan jome’ masjidi (Xonaqo masjidi) va poyabzal rastasiga chiqiladi. (Ilgari bu yerda juda katta hunarmandlar va kosiblar bozori bo‘lgan, hozirda esa uldurji savdo bozoriga aylangan.) Adib bu yerlarga bir necha marotaba keladi, asar uchun material to‘playdi. “Men bir asar yozishdan avval shu yozmoqchi bo‘lgan narsam haqidagi materiallarni puxta o‘rganib chiqaman. Biror joy to‘g‘risida asar yozmoqchi bo‘lsam, o‘sha joyni necha martaba ko‘rgan esam-da, yana borib tekshirib, yaxshiroq o‘rganib kelaman”, - deb yozgan edi Abdulla Qodiriy 1935-yili “ Qizil O‘zbekiston” gazetasida bosilgan “Yozuvchi o‘z ishi to‘g‘risida “ nomli maqolasida. Qodiriy XVIII asr hayotini haqqoniy tasvirlashda har bitta kichik detalga ham sinchkovlik bilan e’tibor qaratgan, joy nomlarini tanlashda tarixiylik prinsipiga amal qilgan. Romanda Marg‘ilon va Toshkentning o‘sha davrdagi xaritasini chizgan desak yanglishmaymiz. Garchi Marg‘ilonning tarixiy darvozalari aslicha saqlanmagan bo‘lsa-da, nomlari o‘shaligicha qolgan: Toshloq, Yormozor, Qo‘qon... “Men Marg‘ilon ko‘chalarida yurib, karvonsaroy, eski o‘rda o‘rinlarini belgiladim. Mirzakarim qutidor, Usta Alim, Homid, Sodiqlar uyini taxminladim va “Xo‘ja

¹⁵ Karimov B. O‘tkan kunlar. “Jahon adabiyoti” jurnali// 2013, № 4. – B. 11-14.

Maozda bir kecha tunadim”¹⁶. “O‘tkan kunlar”da Usta Alimning mahallasi “B...” mahalla deyiladi. Ma’lumotlarga qaraganda, Poyabzal rastasidan yuqoridagi bu mahalla Bahrin mahallasi bo‘lishi mumkin. Bu mahalla asarda aytilganidek, Marg‘ilon shimoliy darvozasiga yaqindir. Hatto bu mahalladan ancha uzoqda hozir Usta Alim mahallasi bor. Lekin buning asardagi Usta Alimga daxli bor-yo‘qligi bizga ma’lum emas. Usta Alimning yori Saodatning uyi “Ch...” mahallasida, otasi miltiqsoz bo‘lgan deyilgan. Fikrimcha, bu mahalla Uvaysiy tug‘ilgan Childuxtaron mahallasi bo‘lib, Miltiqsozlar mahallasi bilan yonma-yondir. Bu mahalla hunarmandlar rastasiga yaqindir. Asarda bir necha marotaba takrorlangan “Xo‘ja Ma‘oz” mozori bugungi kunda ham mavjud. Hali ham ko‘hna chinorlar, qabrlar saqlanib qolgan. Aytishlaricha, bu yerga sahobalardan Mu‘oz r.a. dafn etilgan ekanlar. Ziyoratgohga bugunda ham ko‘plab ziyoratchilar kelib-ketadi. Qodiriy “Xo‘ja Ma‘oz”da tunagini, masjid ayvonida uzoq o‘tirib xayol surganini ta’kidlaydi. Endi romandagi zamon chizgilariga biroz to‘xtalsak. Qodiriy roman yozishga kirishar ekan, ortga qaytib moziyga nazar tashlaydi. Moziy esa zamon va makon jihatdan cheksiz hamda mavhumdir. Abdulla Qodiriyning o‘zi “moziy”ga aniqlik kiritib davrni “yaqin o‘tgan kunlardan, tariximizning eng kir, qora kunlari bo‘lg‘an keyingi xon zamonlari” ni tanlaydi. O‘sha zamonlar manzarasini so‘z orqali chizib ko‘rsatadi. “O‘tkan kunlar”dagi davr qamrovini belgilash uchun roman boshiga nazar tashlaymiz, “1264 hijriya, dalv oyining o‘n yettinchisi”, endi asarning so‘nggidan, Kumushbibi qabriga qo‘yilgan tosh lavhadan o‘qiymiz: “... Kumushbibi binti Mirzakarim Marg‘iloniy tarixi tavalludi 1248, vafoti 1269 hijriy, jumad-ul avval ...”. Garchand Qanoatsho Avliyo otadan Yusufbek hojiga maktub yo‘llab, Otabekning shahidligi xususida (asar “Xotima”sida berigan) hijriy 1277 yil kuzida xabar bergan bo‘lsa-da, “O‘tkan kunlar”dagi voqealar hijriy 1269 yili yakun topgan.

“1264 hijriya, dalv oyining o‘n yettinchisi, qishki kunlarning biri, quyosh botgan, tevarakdan shom azoni eshitiladir... Darvozasi sharq-janubga qaratib

¹⁶Abdulla Qodiriy, O‘sha asar, 306-bet.

qurilgan bu dongdor saroyni Toshkent, Samarqand va Buxoro savdogarlari egallaganlar, saroydagi bir-ikki hujrani istisno qilish bilan boshqalari musofirlar ila to'la...“, deb zamon va makonni oydinlashtiradi. Abdulla Qodiriy manzil-makonlarni xuddi suratini chizgandek ko'rsatish barobarida, voqealar kechayotgan vaqtni ham aniq ta'riflaydi. Buning uchun u ko'p hollarda chiroyli o'xshatishlar va xalqona ta'riflardan foydalanadi. Masalan: “Qish kunlari bir tutam, ha deguncha kech bo'ladi”. Roman ichkarisida taxminan besh-olti yillik zamon bor. Romanda zamon tasviri tarixiy haqiqat va jonli hayot asosida gavdalantirilgan. Ustoz Oybek ta'biri bilan aytganda “Abdulla Qodiriy prozasi birinchi navbatda g'oyat hayotiyli bilan ajralib turadi”. O'sha davrning muhim siyosiy voqealaridan sanalgan Toshkentning Qo'qon lashkarlari tomonidan qamal qilinishi bilan bog'liq tarixiy hodisalar, Qorasaroy, Taxtapul, Labzak, Qashqar mavzelarining o'sha paytdagi holati haqida aniq tasavvur uyg'otadi. Voqealar ro'y beradigan vaqt va joylar batafsil yoritilgan. Tarixiy manba va solnomalarda ham o'rda va saroylar bunchalik batafsil tasvirlanmagan. Hatto Marg'ilon va Qo'qondagi o'rdalarning o'xshash va farqli jihatlari birma-bir sanab o'tilgan. “O'tgan kunlar” o'zbek romanchiligining birinchi namunasi bo'lishiga qaramay, asar mukammallikda ham birinchilikni egallab kelmoqda. Roman muvaffaqiyatini ta'minlagan ilk omil bu Qodiriyning xronotop yaratish mahorati. “ Abdulla Qodiriy romanlaridan zamon va makon tasviri chiqarib tashlansa, ular xuddi sharbati siqib olingan anorga o'xshab qoladi. Anorning esa savlati emas, sharbati foydali”¹⁷. Romanda dastlab karvonsaroy va hujralar umumiy tarzda tavsiflanadi, so'ngra Otabek turgan hujrani batafsil tasvirlaydi: “Saroyning to'rida boshqalarg'a qarag'anda ko'rkamroq bir hujra, anovi hujralarg'a kiyiz to'shalgani holda bu hujrada qip-qizil gilam, uttalarda bo'z ko'rpalar ko'rilgan bo'lsa, munda ipak va adras ko'rpalar, narigilarida qora charog' sasig'anda, bu hujrada sham yonadir, o'zga hujralarda yengil tabiatlik, serchaqchaq kishilar bo'lg'anida bu hujraning egasi boshqacha

¹⁷ Abdulla Ulug'ov. Zamon va makon musavviri. "Sharq yulduzi" jurnali// 2015, № 2. – B. 12-18 .

yaratilishda”¹⁸. Qodiriy dastavval karvonsaroyini o‘quvchi nigohidan o‘tkazadi-yu, Otabek yashagan hujraga kelib tasvirni mufassallashtiradi. Hujralarning kigiz-u gilamidan tortib bo‘z-u ipak ko‘rpalarigacha farqli ekanligini aytadi. U hujraning faqat jihozlarigina emas, balki hujra egasining o‘zi ham “boshqacha yaratilishda” ekanligini ta’kidlayapti. Yozuvchi asarning biror o‘rnida qahramoniga nisbatan boy-badavlat, vazmin tabiatli sifatini qo‘llamaydi. Lekin romanni o‘qigan har bir kitobxon Otabekning nufuzli, o‘ziga to‘q oilaning farzandi bo‘lganligini, boshqa hujralardagi yo‘lovchilar “yengil tabiatli, serchaqchaq” bo‘lgani holda Otabek ulardan tamoman boshqacha insonligini fahmlaydi. Qodiriy asar sujetining ilk voqealarini **“karvonsaroy xronotopi”** bilan boshlaydi. Sharq olamida karvonsaroylar musofirlar bir qo‘nib o‘tadigan joy vazifasini bajaradi. Karvonsaroyga har kim kelib ketishi mumkin. Qodiriy asaridagi karvonsaroyning esa vazifalari ko‘p. Bu musofirxona kitobxonni XVIII asrga olib kiradigan ilk manzil sifatida bizga davr muhitini va shu zamon kishisi sifatida Otabekni tanishtirishi hamda asarning keyingi qismlarida muhim rol o‘ynaydigan bir qancha suhbatlar kechadigan o‘rin vazifasini bajaradi. Otabek bu yerda ilk bor raqibi bilan uchrashadi. U bilan bog‘liq eng muhim holat ham shu makonda ma’lum bo‘ladi. Asarning boshqahramonlari Otabek va Kumushning ilk uchrashuvlari kechgan joy-biz uni shartli ravishda **“ariq bo‘yi”** xronotopi deb olamiz. Qahramonlarimizni uchrashtirgan bu ariq hali ham bor. “Otabek Marg‘ilon kelganning ikkinchi kuni poyabzal bozorida bo‘lg‘an edi. Asr Namozining vaqti o‘tib borg‘anlikdan ul shundagi do‘kondorlardan birisidan tahorat olish uchun suv so‘radi. Ko‘chadagi suv ariqning tegidan –soy oqar, shuning uchun undan foydalanish qulay emas edi. Do‘kondor unga suvning qulay o‘rnini ko‘rsatdi: “Mana shu burchakdagi darbozadan ichkariga kirsangiz, ariqning yuza joyini topib tahorat olursiz”, dedi. Otabek do‘kondorning ko‘rsatishicha qutidorning tashqarisig‘a kirdi. Xuddi vaqt tasodifan nima yumush bilandir mehmonxonadan chiqib kelguvchi farishtaga ko‘zi tushdi. Kumush ham ariq yoqasig‘a kelib to‘xtag‘an chingilin yigitga beixtiyor qarab qoldi. Ixtiyoriy emas, g‘ayriixtiyoriy ikkisi ham bir-birisidan birmuncha vaqt

¹⁸ Abdulla Qodiriy. O‘sha asar, 7-bet.

ko‘z ololmadilar. Oxirda Kumush nimadandir cho‘chig‘andek bo‘ldi, yengilgina bir harakat bilan o‘zini ichkari yo‘lak tomong‘a burdi”. Bu xronotopdagi asr namozi payti va ariq bo‘yi ikki yoshni uchrashtiradigan, ko‘ngil iplarini bog‘laydigan zamon va makon vazifasida bajaryapti. O‘sha birinchi nigohlar to‘qnashuvida paydo bo‘lgan ishq tuyg‘usi kelajakdagi visol baxti, kundoshlik balosi va ayriliq kunlariga zamin hozirladi. Uni asar syujetidagi ishq-muhabbat halqasi desak bo‘ladi. Xronotopning asar syujetidagi boshqaruvchilik roli shu o‘rinda yaqqol ko‘zga tashlanadi.

Zamon asardagi makon tasvirini, syujet qamrovini, badiiy nutq xususiyatlarini, voqealarning xronikal izchilligini boshqaradi. Zamon va makonning o‘zaro mutanosib kelishi asarning muvaffaqiyatini ta’minlaydi. Ammo, bu borada ozgina bo‘lsin nomutanosiblikka yo‘l qo‘yilsa, bu asar mukammallikka da’vo qila olmaydi. “Zamon va makonning mavhumligi kitobxonning xafsalasini pir qilibgina qolmay, ayni chog‘da asar kompazitsiyasining yaxlitligiga ham putur yetkazadi. Demak, shakl va mazmun dialektik birlik sifatida yaxlitlik kasb etsa, badiiy asar kompazitsiyasi asarning umumiylik va xususiylik jihatlarini bir o‘zanga solib beradi. Per Kornelning fikricha, har qanday badiiy asar voqelik, vaqt va joy birliklaridan tarkib topishi kerak. Uning aytishicha, san’atkor “imkon qadar vaqt birligiga erishishga harakat qilishi shart”¹⁹. Badiiy zamon va makon asarning barcha unsurlarini qamrab oladi. Ijodkorlar zamonni turlicha tanlashlaydilar. Masalan, bir yozuvchi o‘n beshinchi asr voqealarini (Odil Yoquboning “Ulug‘bek xazinasi” romani), boshqa bir yozuvchi yigirmanchi asr voqealarini (O‘tkir Hoshimovning “Ikki eshik orasi” romani) qalamga oladi. Asarlarda davrlar turlicha bo‘lgani singari vaqt qamrovi turlicha bo‘lishi mumkin. Odil Yoquboning “Ulug‘bek xazinasi” romanida Mirzo Ulug‘bekning va temuriylar saltanatining bir necha oylik hayoti tasvirlangan bo‘lsa, O‘tkir Hoshimovning “Ikki eshik orasi” romanida ikki avlod vakillarining hayoti (yigirmanchi asrning 30-yillaridan to 80-yillarigacha bo‘lgan vaqt oralig‘i) yoritilgan. Asarda chegaralab olingan zamonni

¹⁹Quronov D., Rahmonov B. O‘sha manba, 264-bet.

tasvirlashda makon muhim rol o'ynaydi. Zamon va makon asarda ham shaklan ham mazmunan uyg'unlashsa, asar to'laqonli real hayot tasviriga aylanadi. Afsuski, ko'p o'rinlarda zamon va makon tasviriga u qadar e'tibor qaratilmaydi. Ijodkorning ham, kitobxonning ham yo'l qo'yadigan kamchiliklari aynan shu. Vaholanki, zamon va makon tasvirida voqelikdagi har bir unurning o'z o'ni bo'lishi kerak. Bu unsurlar shunday mahorat bilan tavirlanishi lozimki, kitobxon asarni o'qish jarayonida har bitta unsur uning tasavvurda aniq jonlansin. Mana shu jihatga amal qilib yozilgan badiiy syujetlar puxta bo'ladi. Zamon va makonni tasvirlashda badiiylik bilan bir qatorda reallikka ham e'tibor bilan yondashish kerak. Keltirilayotgan har bir fakt tabiiy turmush manzarasini ifodalasa, asar yanada jonli, asl hayot haqiqatiga monand bo'ladi.

Xronotop asarning badiiy saviyasini, voqealarning mantiqiy izchilligini, oddiy, kichik detaldan tortib eng muhim voqea-hodisalarni o'ziga xos gavdalantiradigan badiiy hodisa sanaladi. Asarning o'ziga xos jozibasi aynan shu jihatlarda ko'zga tashlanadi. Xronotop asarning nafaqat janr xususiyatiga, balki mavzu ko'lamiga ham ta'sir ko'rsatadi. M.Baxtinning quyidagi so'zlari yuqorida keltirilgan fikrimizning dalilidir: "Xronotopni biz adabiyotdagi shakl va mazmun kategoryasi sifatida talqin qilamiz"²⁰. Badiiy asarda makon va zamon elementlari, syujet va kompozitsiya bir nuqtada tutashib, aniq bir davrning ruhiy manzarasini yuzaga keltirishi, asarning mazmunini to'laqligicha ochib berishi lozim.

²⁰Жўракулов.У. Ўша манба, 109-бет.

1.2. Zamon va makonning obrazlarda ifodalanishi

Badiiy adabiyotni obrazlarsiz tasavvur etib bo'lmaydi. Fanning boshqa sohalarida qo'llaniladigan obraz bilan adabiyotdagi badiiy obraz birozgina farqlanadi. "Badiiy obraz – adabiyot va san'atning fikrlash shakli, olam va odamni badiiy idrok etish vositasi, badiiyatning umumiy kategoriyasi. Lug'aviy ma'nosida har qanday aksni bildiruvchi "obraz" so'zi turli fan sohalarida (falsafa, psixologiya) muayyan terminologik ma'noda qo'llanadi. Jumladan, estitika va adabiyotshunoslikda u "badiiy obraz" ma'nosida tushuniladi. B.o.deganda borliq (undagi inson, narsa, hodisa va h.)ning san'atkor ko'zi bilan ko'rilgan va ideal asosida ijodiy qayta ishlangan aksi anglanadi. Albatta, bu aksda borliqning ko'plab tanish izlari bor, biroq endi u biz bilgan borliqning ayni o'zi emas, balki undan shartlilik asosida ajralgan yangi mavjudlik – badiiy borliqdir. Xuddi shu hol B.o.ni ob'yektiv va sub'yektiv ibtidolar birligiga aylantiradi. Ya'ni, bir tomondan, borliqning aksi sifatida Вадий образ. makon va zamonda mavjud bo'lgan konkret narsadek his etiladi"²¹. Demak, badiiy adabiyotda insonning alohida shaxs qiyofasida yaratilgan, ayni paytda badiiy umumlashma xususiyatiga va hissiy ta'sir kuchiga ega bo'lgan surati badiiy obraz sanaladi. Obraz keng ma'noda ijodkorning fikr-tuyg'ulari singdirilgan hayot manzarasini anglatga, tor ma'noda badiiy asarda aks ettirilgan inson siymosini ifodalaydi. Biz bu o'rinda tor ma'nodagi obraz haqida so'z yuritamiz. Agar Abdulla Qodiriy o'zbek adabiyotiga Otabek va Kumush, Yusufbek hoji va O'zbek oyim, Mirzakarim qutidor va Oftoboyim singari o'z siymosida o'zbek xalqi tarixining muayyan tarixiy davrini va shu xalqning ma'lum bir qatlamini ifodalagan obrazlarni olib kirgan bo'lsa, Oybek Yo'lchi, Gulnor, Qoratoy, Shoqosim, Yormat kabi mehnatkashlar obrazi bilan boyitdi. Badiiy adabiyotda inson timsoli u yashayotgan davr, jamiyat, tabiat, muhit bilan uzviy aloqada tasvirlanadi. Chunki inson hamisha zamon va makon qurshovida bo'ladi. Insonning yashash manzili yer sayyorasi bo'lsa, badiiy obrazning yashash makoni badiiy asardir. Inson o'zi yashaydigan

²¹Д.Куръонов, З.Мамажонов, М.Шералиева. Адабиётшунослик луғати. — Тошкент: "Академнашр", 2013, 43 бет. (Кейинги иқтибослар шу асардан олинади ва "Ўша манба" тарзида берилиб, бетлари кўрсатилади).

zamon talablariga va makon qoidalariga amal qiladi, badiiy asardagi obrazlar esa o'z ijodkorlari yaratgan xronotop mezonlariga bo'ysunadi.“ Xronotop shakliy-mazmuniy kategoriya sifatida adabiyotda inson obrazi mohiyatini belgilaydi. Chunki badiiy obraz doimo xronotop negizida ma'no kasb etadi”²². Asarlarda shunday obrazlar bo'ladiki, ijodkor ularni zamon talabi bilan yaratadi. Asarda qalamga olingan davrni shunday obrazlarsiz tasavvur etib bo'lmaydi. “O'tgan kunlar” romanidagi zamon taqazosini bilan yaratilgan obrazlardan biri Yusufbek hoji obrazidir. Hoji obrazi asardagi universal obrazlardan biri. Yusufbek hoji – sharq-islom olamida ilg'or fikrlovchi, milliy ziyolilarimizning qarashlarini o'zida mujassam ettirgan obraz. U doimo din va millat qayg'usida yuradi. Shu ikki tushuncha Yusufbek hoji timsolida ifodalangan. U millat taqdirini islom aqidasi bilan ayro tushuna olmaydi. Hoji ko'ngil xotirjamligini millat xotirjamligi bilan o'lchaydi. “Bu soqol shu el qayg'usida oqardi. Bu ko'ngil shu manfaatparastlar ta'sirida qoraydi. Yoshim oltmish beshka yetib bir vaqt bo'lsin ibodatimni janobi Haqqa bevosita yo'naltirganimni va ko'ngil ko'zim ochilib qilgan sajdami xotirlay olmayman”,²³ - deydi chuqur nadomat bilan Yusufbek hoji. Yusufbek hoji obrazi asarning siyosiy masalalarida ham ijtimoiy masalalarida ham yetakchi rol o'ynaydi. Romandagi “Toshkent” xronotopini Yusufbek hoji obrazisiz tasavvur etib bo'lmaydi. Millatning kattalari yig'ilib manfaat, hokimyat uchun kurashayotgan bir paytda Yusufbek hoji o'rta din va millat qayg'usini tashlaydi, Toshkent xalqini Azizbekday zolim hukmdordan qutradi. Yusufbek hoji oilada ham o'ta jiddiy, rasmiy ota maqomida turadi. Qodiriy hoji obrazi orqali millat otasi timsolini yaratadi. Badiiy adabiyotda inson bilan bir qatorda, narsa-hodisalar, muhit tasviri ham muhimdir. Har qanday badiiy obrazda muayyan bir zamon va makonning xarakter xususiyati ifodalanadi. Obraz o'zi ifodalayotgan zamon va makonda harakatlanadi. Asarlarda qalamga olinayotgan qahramonlar bevosita zamon va makon tasviri orqali gavdalantiriladi. Obrazda ham xronotop xususiyatlari akslanadi. “Badiiy obraz xronotopliligi prinsipi ilk bor Lessing tushunarli qilib

²² Михаил Бахтин. Ўша манба, 44-бет.

²³ Abdulla Qodiriy., O'sha asar , 306-bet.

ochib bergan. U badiiy obrazning zamonaviy tabiatini qayta tiklaydi. Bunga ko‘ra, barcha makonga xos tur‘gunliklar turg‘un tarzda emas, tasvir etilayotgan voqelikning zamon qatoriga, aynan hikoya-tasviriga jalb etilishi kerak²⁴. Qahramonlarning ro‘y berayotgan voqea-hodisaga nisbatan munosabatida vaqt ham o‘z ta‘sirini o‘tkazadi. Kumush Jannat kampir olib kelgan Homidning Otabek nomidan yozgan soxta taloq xatini o‘qib, hushidan ketib yiqiladi. Mirzakarim qutidorning taloq xatini o‘qish va undan keying holati : ”Vaqt xuftonga yaqinlashgan edi. Qizining haligi javobi bilan sabrsizlikka tushgan qutidor qo‘liga sham olib, tashqariga chiqdi va yerdan xatni oldi. Qizini bunchalik falokatga solgan xatni olgan yeridan qo‘zg‘almayoq o‘qib chiqdi. Xat haqiqatan jonsiz edi. Qutidorning ham oz qoldiki, hushi boshidan uhsin...”²⁵, deb tasvirlanadi. Xufton kunduzgi yorug‘lik batamom barham topib, borliqqa tun qorong‘iligi o‘z hukmini o‘tkazadigan palla. Bunday paytda atrofni allaqanday sirli mavhumlik chulg‘ab oladi. Odam o‘zini o‘gir, noxush sezadi. Birozgina noxushlik ham unga qattiq ta‘sir qiladi. Abdulla Qodiriy Mirzakarim qutidorning ahvolini ko‘rsatishda tabiat bilan inson kayfiyati, holatidagi ana shu bog‘lanishdan kelib chiqadi. Mirzakarim qutidor ushbu xatni tun qorong‘iligi bostirib kelayotgan paytda emas, tongda yoki quyosh charaqlab turgan tush paytida o‘qib ko‘rganida xatda yozilganlar to‘g‘risida, ehtimol, boshqacha mulohaza yuritardi. Adib syujetdagi dramatismni kuchaytirish maqsadida ataylab xufton vaqtini tanlaydi. Qodiriy Otabekning qaynotasi tomonidan haydaliq voqeasini ham vaqt bilan bog‘lab tasvirlaydi. Otabek Mirzakarim qutidorning uyiga ertalab yoki tush paytida emas, shom azoni eshitilayotgan kechki vaqtda keladi. Bu paytda borliq qorong‘ulikka cho‘mganidan atrofdagi narsalar g‘ira-shirako‘rinadi. Mirzakarim qutidor Otabekning sog‘inch to‘la kulib turgan chehrasini aniq ko‘rolmagani tufayli dag‘al muomala qilib, uni quvib yuboradi. Agar kunduzi bo‘lganida, Mirzakarim qutidor “...otini ko‘chaning o‘rtasida qoldirib yurgan kuyovining ko‘rishmak uchun uzatilgan qo‘lini bo‘sh havoda qoldirmas, titroq va hayajonli tovush bilan: “Uyatsizga mening uyimda

²⁴Михаил Бахтин. Ўша манба, 250-бет.

²⁵Abdulla Qodiriy. O‘sha asar, 136-bet.

o‘rin yo‘q, uyatsiz bilan so‘zlashishga ham toqatim yo‘q... Boringiz, eshigim yonida to‘xtamangiz!”,–deyolmas edi²⁶. Chunki odamning yuzi hamisha issiq. Mirzakarim qutidor singari turmushning past-balandini ko‘p ko‘rgankishilar, ayniqsa, birov bilan yuzma-yuz bo‘lganida buni juda yaxshi his qilishadi. “Qahramonlarning kayfiyat va kechinmalarini badiiy zamon va makon tasvirisiz ko‘rsatib bo‘lmaydi”²⁷. Qodiriy zamon va makonga sirli tus berish mahoratini namoyish etish barobarida, qahramonlarning xarakterini ham ochib beradi. Hasanalining uy tasviri ham shunday deyish uchun asos bo‘la oladi. Asarda bu uy to‘g‘risida: “Tozag‘ina yig‘ishtirilib, o‘rta hollik kishilarning uyidek asbob-jihozlar bilan ziynatlangan edi. Devorlar ganchlangan, shiplar sirlangan, oyoq osti alvon gullik kiyiz bilan to‘shalgan va taxmonga kirpo‘sh ko‘rpalar osilgan edi” , deyiladi. Birinchidan, u Hasanalining ozoda-pokiza tabiatini, u Yusufbek hoji xonadonidagilarga qul emas, qadrdon kishiga aylanganini bildiradi. Ikkinchidan, Yusufbek hoji xonadonidagilarning diyonatli kishilar ekanligi, ular Hasanaliga qul emas, shu oilaning bir a‘zosi deb qarab, uning o‘rtahol kishilardek uy-ro‘zg‘or qilib turmush kechirishiga imkoniyat bergani to‘g‘risida tasavvur uyg‘otadi. Qahramonlarning tashqi qiyofasi, turmush tarzi, til xususiyatlari, kasb-kori kitobxonda o‘sha davr kishisi to‘grisida tasavvur uyg‘otishi kerak. Obrazlarning ruhiy kechinmalari, turli vaziyatlardagi holatlari qalamga olayotganda manzil-makonning qahramonlarga qanday ta’sir ko‘rsatishiga e’tibor qaratish lozim. Chunki, asar qahramonlarining kayfiyati, turli ko‘rinishdagi sezimlari makon va zamon elementlari bilan bevosita bog‘liqdir. Bu o‘rinda uch muhim tushuncha: obraz, zamon va makon mantiqiy uyg‘unlikda tasvirlanishi kerak. Abdulla Qodiriy qahramonlarining kayfiyat, kechinmalarini qalamga olayotganda bamisoli ruhshunosga aylanadi. Jumladan, mazil-makonning qahramonlarga qanday ta’sir ko‘rsatishiga e’tibor qaratadi. Otabek nohaq quvlanganidan keyin qaynotasi hovlisi oldidan o‘tayotgandagi holatini: “Uzoq to‘xtab turmay, sobit va kuchli odimlar bilan poyafzal rastasiga yurdi. Garchi bu ko‘cha uning yuziga qizarib-oqarish va

²⁶ Abdulla Qodiriy., O‘sha asar, 146-bet.

²⁷ Ulug‘ov A. Zamon va makon musavviri. “Sharq yulduzi “ jurnali// 2015-yil, №2. – B. 12-18.

bo‘zarib-sarg‘ayish tuslarini berar edi, o‘sha voqeadan so‘ng, onalar ta‘biricha “ilon chiqqan” bu ko‘chaga birinchi kirishi, birinchi jasorati edi. Ko‘chaning burilishida uning odimlari yana biroz sekinlashsa ham, lekin odimlashini qo‘ymay boraverdi. Uzoqdan qutidorning qutidorning tilsimli darvozasi ko‘rinib turar edi... Darboza yonidagi mash‘um tol daraxti ham nomuborak bir ishga guvohlik bergan kabi bo‘lar edi”, deb tasvirlaydi²⁸. Haqiqatan, insonning tasavvuri xotirasida o‘rnashib qolgan zamon va makon ta‘sirida harakatga keladi. Chunki har qanday voqea inson xotirasiga muayyan zamon va makon orqali “muhrlanib” qoladi. Kishi o‘sha joyni ko‘rganida uning ongostiga tushib ketgan kechmish voqealari daf‘atan xotira ko‘zgusiga qalqib chiqib, kishining ko‘z o‘ngida namoyon bo‘la boshlaydi. O‘sha paytda odam o‘tmishini ayni holati bilan taqqoslab, o‘ziga-o‘zi savol berib, hayotini taftish qiladi. “O‘tkan kunlar” qahramoni Otabek ham Mirzakarim qutidor hovlisi oldiga borganida shunday holatga tushadi.

Abdulla Qodiriy “O‘tkan kunlar” romanini yozayotganida zamonaviy o‘zbek nasri endi tetapoya bo‘layotgan edi. U paytlarda dunyo adabiyotidan sanoqligina asarlar tarjima qilingan edi. XXasrning 20-yillariga qadar jahon adabiyotidagi biror bir roman o‘zbek tiliga tarjima qilinmagan edi. Lev Tolstoyning ba‘zi kichik hikoyalari tarjima qilingan holda, boshqa rus yozuvchilarining asarlari deyarli tarjima bo‘lmagan edi. Ana shunday bir davrda Abdulla Qodiriy hayot manzarasi haqqoniy aks ettirilgan roman yaratdi. U “O‘tkan kunlar” asarida o‘zbek adabiyotida birinchi bo‘lib qahramonlar turgan zamon va makon manzarasini mahorat bilan tasvirlab berdi. Ushbu romandagi zamon va makon tasvirida voqelikdagi har bir unsur o‘z o‘rnida ko‘rinadi. Yorqin ranglarda chizilgan bu unsurlar tasavvurda aniq jonlanadi. Qodiriy o‘zida roman yozish ishtiyoqining tug‘ilishiga sababchi bo‘lgan ijodkor va ustoz sifatida arab yozuvchisi Jo‘rji Zaydonni e‘tirof etadi. Ko‘plab tarixiy romanlar muallifi bo‘lgan bu Misr fuzalosi o‘zining “Farg‘ona keline”, “Armanusa”, “O‘n yettinchi ramazon” romanlari bilan dunyoga mashhur edi. Tanqidchi Sotti Husayn “O‘tkan kunlar”ni Jo‘rji Zaydon

²⁸Abdulla Qodiriy. O‘sha asar, 196-bet.

asarlari o'xshab ketadi, deb Qodiriyning ko'chirmachilikda ayblaydi. Ammo, arab yozuvchisining romanlari Qodiriy asaridagi zamon va makon tasviri bilan taqqoslansa, Abdulla Qodiriy qahramonlarining holat, kechinmalarini aks ettirishda yuksak mahoratini namoyish qilgani ayon bo'ladi. "O'tkan kunlar"ning: "Kuz kunlarining oxiri va qish kunlarining boshi edi. Daraxtlardagi sariq barglar to'kilib tugalgan, yer yuzi o'zining qishki sariq kiyimini kiygan edi. To'rt tomonning o'ralganligi soyasida yaproqlarini to'kilishidan saqlab qolgan bu gilos yog'ochlari ham bu tungi qora sovuqqa chidolmay, yelning ozgina harakati bilan-da barglarini shitir-shitir uzib tashlamoqda edilar. Havo ochiq bo'lib, quyosh tuzikkina ko'tarilgan, ammo uning ham bu kungacha ta'siri yo'q, bu kungi qora sovuq quyosh kuchini-da kesgan edi..."²⁹ kabi tasvirlar shundan dalolat beradi. Romanda bunday ta'sirchan sahifalar talaygina bo'lib, ularda qahramonlar holati zamon va makonga uyg'un tarzda tiniq tashbehlar, nozik kuzatishlar asosida ifodalanadi. Qodiriy so'z vositasida manzara, ruhiyat va obraz chizadi. Qodiriy Otabek va Kumushdek betakror obrazlarni yarata olganki, Kumush o'lgan sahnada kitobxon beixtiyor ko'z yosh to'kadi. Darvoqea, yozuvchining o'zi bu epizodni yig'lab yozadi. Qodiriy quruq bayon o'rniga voqelikni, insonni tasvirlashni muhim deb bildi. "O'tkan kunlar" dagi xronotoplar xayoliy va hayotiy omillar uyg'unligida maydonga kelgan. Asarni o'qigan odam o'zaro chambarchas bog'langan zamon va makonning badiiy talqiniga duch keladi. Abdulla Qodiriy "O'tkan kunlar" cheksiz va abadiy hayot ummonidagi muayyan zamon va makonni, undagi odamlarning taqdir-qismatini, quvonch va izzatlarini ko'rsatish orqali so'z – ilohiy ne'mat ekanligini, uning mislsiz qutratini namoyon etadi. Shuning uchun adib asarlari qancha zamonlar o'tsa-da, kishilarni maftun etib keladi.

²⁹Abdulla Qodiriy. O'sha asar, 211-bet.

II. Bob.

Tarixiy romanlarda badiiy zamon va makon uyg'unligi

2.1. Odil Yoqubovning “Ko‘hna dunyo” romanida tarixiy makon va zamonni tasvirlash mahorati

Odil Yoqubov XX asr o'zbek adabiyotining karvonboshi ijodkorlaridan sanaladi. Adib 1926-2009-yillarda yashab ijod etgan. Bitiruv malakaviy ishimizning asosiy yo'nalishi ijodkorning tarixiy romanlarida zamon va makon hodisalarini o'rganish bo'lganligi tufayli yozuvchining hayoti yo'lga to'xtalib o'tmaymiz, zero, har bir o'zbek kitobxoni Odil Yoqubov shaxsiyati bilan tanish bo'lishi tabiiy holdir. Odil Yoqubov katta va sermashaqqat ijod yo'lini bosib o'tdi. Adibning birinchi yirik asari “Tengdoshlar” qissasi 1951-yilda nashr etiladi. Qariyb yarim asrlik ijodiy faoliyati mobaynida Odil Yoqubov o'nlab nasriy kitoblar, jumladan, “Muqaddas”, “Ikki muhabbat”, “Izlayman” kabi qissalar, “Er boshiga ish tushsa”, “Diyonat”, “Oq qushlar, oppoqqushlar”, “Ko‘hna dunyo”, “Ulug‘bek xazinasini”, “Adolat manzili” kabi adabiyotimiz xazinasida munosib o‘rin egallagan romanlarni yaratdi. Yozuvchining “Ulug‘bek xazinasini” romani dunyoning 47 tiliga tarjima qilingan. Bundan tashqari, “Ulug‘bek xazinasini” va “Diyonat” romanlari asosida olingan besh qismli televizion teatrlar uzoq muddat ekranlardan tushmagan va O‘zbekiston Teleradiokompaniyasining “Oltin fondi”dan joy egallagan. Moskva shahrida “Diyonat” romani asosida ikki seriyali to‘liq metrajli badiiy film ishlangan. Shu bilan bir qatorda 14 ta asari asosida kinopovestlar, telenovellalar, videofilmlar suratga olingan. O‘zbekiston va boshqa qo‘shni hamdo‘stlik mamlakatlarida barcha asarlari radiopostanovka qilingan.

Odil Yoqubov badiiy proza bilan bir qatorda dramaturgiya va publisistika janrlarida ham samarali ijod qilib, o‘zining yorqin iste’dodini namoyon etgan. Adibning “Chin muhabbat”, “Aytsam tilim, aytmasam dilim kuyadi”, “Yurak yonmog‘i kerak”, “Olma gullaganda”, “Muzaffar Temur”, “Bir koshona sirlari” kabi pyesalari, “Dilbarim”, “Bahor yomg‘irlari” singari kinossenariylari mavjud.

Atoqli yozuvchining ozbek adabiyotini rivojlantirishdagi xizmatlari davlatimiz tomonidan munosib taqdirlangan. U Hamza nomidagi O‘zbekiston Davlat mukofoti laureati (1977), “O‘zbekiston xalq yozuvchisi” faxriy unvoni, “Do‘stlik” (1994), va “Er-yurt hurmati” (1998) ordenlari bilan taqdirlangan.

Odil Yoqubov XX asr o‘zbek romanchiligini Abdulla Qodiriy, Cho‘lpon, Abdulla Qahhor va Oybeklardan so‘ng yana bir bor yuksaklikka ko‘tardi. Odil Yoqubov romanlari mavzu jihatidan rang-barang. Shu romanlar orasida tarixiy mavzuda yozilgan “Ko‘hna dunyo” va “Ulug‘bek xazinasini” romanlari adib ijodining cho‘qqisi sifatida e‘tirof etiladi. Bu asarlar nafaqat o‘zbek romanchiligida balki, jahon romanchiligida ham yuqori baholanadi.

Jahon romanchiligi taraqqiyotida tarixiy roman alohida o‘rin tutadi. Chunki, tarixiy hodisalarni haqqoniy, izchil hujjat va manbalar asosida tasvirlash yozuvchidan ulkan mahorat talab etadi. Shu sababdan ham, tarixchilar bilan adabiyot vakillarining tarixiy voqea-hodisalarga munosabati turlicha bo‘ladi. To‘g‘ri, tarixiy makon va zamondagi voqea-hodisalarni fakt hamda materiallar asosida sinchiklab, batafsil o‘rganish borasida tarixchi ham izlanadi, mashaqqat chekadi, ko‘p mehnat sarflardi. Lekin, ijodkor yozuvchining mehnati va mas’uliyati tarixchilikdan bir muncha og‘irroq. Sababi, agar tarixchini, asosan, tarixiy voqeaning mazmun-mohiyati qiziqтира, ijodkor har bitta kichik detalning haqqoniyligi xususida ham ko‘p izlanadi. Tarixchi ko‘rgan-bilganlarini xolisona baholab, haqqoniy aks ettirsa, ijodkor tarixiy faktlarni inobatga olgani holda, shu faktlar asosida badiiy asar yaratadi. O‘tmish hodisalarning badiiyatga ko‘chishi ijodkor badiiy tafakkuri mahsuli sifatida namoyon bo‘ladi. Tarixiy mavzuda yozilgan asarlarda vaqt (zamon)ni va voqealar kechadigan manzil (makon)ni mutanosib tanlash eng zarur shartlardan biridir. Asarning estetik jihatdan nozikligini ta’minlaydigan bu unsurlarni badiiy asarda oz maromiga yetkazib tasvirlash yozuvchidan katta mahorat talab qiladi. Yozuvchining tarixga munosabati o‘z-o‘zidan paydo bo‘lmaydi. Uning tarixiy manbalarni o‘qishi, sinchkovlik bilan o‘rganishi, o‘tmishning makon va zamon manzalarini chuqur his

qilishi, anglashi, idrok etishi natijasida yuzaga keladi. Yozuvchi o‘tmish haqiqatini o‘z asariga shundayligicha olib kirmaydi, uni o‘z fantaziyasi bilan boyitib, ma’lum g‘oyaviy maqsadga tomon yo‘naltiradi, shundagina asar kitobxon ko‘z o‘ngida haqiqiy hayotday gavdalanadi. Tarixiy mavzudagi asarlar haqida soz borar ekan, tanlangan zamon va makonni ichida badiiy asar yaratish yozuvchidan ulkan ijodiy salohiyat talab etadi. Odil Yoqubov ham tarixiy voqea- hodisalarni tasvirlashda shu jihatlarga e’tibor qaratib, o‘tmish voqealarini badiiy zamon va makon konsepsiyasida tasvirlashda o‘ziga xos uslubni qo‘llaydi. Adibning “Ko‘hna dunyo” romani tarixiy mavzuda yozilgan roman. “Ko‘hna dunyo”ning parchalari dastlab “Qaytar dunyo” nomi bilan e’lon qilinadi. Keyinchalik, 1982-yilga kelib yaxlit kitob holida “Ko‘hna dunyo” nomi bilan chop etiladi. Odil Yoqubov ming yillik tarixga sayohat qilib ko‘hna tarixda o‘zining qudrati bilan shonli nom qoldirgan G‘aznaviylar saltanati tarixidan hikoya qiladi. Umrining so‘nggi kunlarini Mahmud G‘aznaviy iskanjasida o‘tkazgan buyuk alloma Abu Rayhon Beruniy hamda adolatsiz hukmdorlardan qochib hayotining ko‘p qismi sargardonlikda kechgan tib ilmining sultoni Abu Ali Ibn Sino taqdirleri, ular yashagan davr asar markazida turadi. Romanda chindan ham ko‘hna olamning ko‘pgina sir-u sinoatlari, odamzot hayotining mohiyati, dunyoning chigalligi, inson qismatida kutilmagan qaltis va keskin burilishlar o‘zgacha bir yo‘sinda tasvirlanadi. Roman voqealari xronikal tarzda hikoya qilinmaydi. Abu Ali Ibn Sino va Abu Rayhon Beruniy hayotlarining qisqagina muddati – bir oydan oshiqroq qismi tasvirlanadi. Lekin asarni mutolaa qilish jarayonada biz ularning butun bosib o‘tgan umr yo‘llari: bolalik, ko‘rkam yigitlik va o‘rta yosh davrlari bilan ham bevosita tanishib boramiz. Asar davomida qahramonlar turli qiyofalarda namoyon bo‘ladilar. Beruniy goho Qiyotda oshiq yigit qiyofasida, gohida Xiva dashtlarida o‘tin terib yurgan beg‘ubor bolakay qiyofasida, ba’zan qisqa umrining qolgan vaqtini misqollab ilmga bag‘ishlayotgan keksa olim qiyofasida namoyon bo‘ladi. Biz buyuk alloma Ibn Sino umrining ham turli pallalarini kuzatishimiz mumkin. Yozuvchi Ibn Sinoni ba’zan ko‘hna Buxoro quchog‘ida onasi etagida ertak tinglayotgan go‘dak holatida tasvirlasa, ba’zan Afshona cho‘llarida

Bo'tako'zbegin bilan ot choptirib ketayotgan navqiron yigit holatida, ba'zida esa Shamsuddavla va malika Saida saroylarida vazir holida tasvirlaydi. Dunyoni zir titratgan Mahmud G'aznaviy goh shafqatsiz jallod, goh ko'ngli bosh oddiy odam sifatida beriladi. Romanda turkiy xalqlar tarixida o'chmas iz qoldirgan, qudratli imperya asoschisi Mahmud G'aznaviy hayotining tahlika va shubha-yu gumonlarga to'la so'nggi davri aks ettirilgan. O'tmishning yorqin davrini qamrab olgan romanda zamon va makon tasvirlari mukammal darajada yoritilgan. Asar voqealari uchun Buxoro, Xiva va G'azna kabi shaharlar asosiy makon sifatida tanlangan. Asar voqealari retrospektiv, ya'ni parallel tarzda kechadi. Yondosh xronotop tasvirini asar syujetining rang-barangligini ta'minlagan. Syujet (fr. sujet – predmet, asosga qo'yilgan narsa) – badiiy shaklning eng muhim elementlaridan biri, asardagi bir-biriga uzviy bog'liq holda kechadigan, qahramonlarning xatti-harakatlaridan tarkib topuvchi voqealar tizimi... Syujet personajlarning "harakat"laridan tarkib topadi. Personajlarning makon va zamonda kechuvchi xatti-harakatlari ham, ruhiyatidagi o'y-fikrlar, his-kechinmalar rivoji ham harakatdir."³⁰ Odil Yoqubov "Ko'hna dunyo" romanida syujetning xronikali va konsentrik turlaridan bab-baravar foydalangan. Romanning quyidagi o'rnida yozuvchi xronikali syujetdan foydalangan: "Kecha ertalab u dori buyurish uchun attorlik rastasiga o'zi borgan edi. Tanish attorga uchrab, uyga qaytayotgan edi, muyulishdagi do'kondan, Sadafbibini aytganidek, to'nkaga o'xshash bir kimsa otilib chiqdi-da, pildirab kelib yo'lini to'sdi.

Bu o'sha, Malikul Sharobning mayxonasida kechalari na chalg'uvchi, mayxo'rlar orasida "Piri Bukriy" laqabi bilan dong chiqargan bukri attor edi. Hayot Beruniy bilan bu bukrini salkam qirq yil muqaddam Qiyotda, Rayhonabonular xonadonida to'qnashtirgan edi. U mahalda Bukri ham Beruniy kabi Qiyotda yashar, Rayhonaning otasiga shogird tutingan savdogar edi. Lekin ustozi hayot vaqtida ipakday muloyim, itday sadoqatli bo'lgan bukri savdogar jon taslim qilgan kuni kechasi uning qiziga, eri o'lib tul qolgan qizi Rayhonabonuga

³⁰D.Qur'onov, Z.Mamajonov, M.Sheraliyeva. O'sha manba, 289- bet.

tajovuz qilgan, ular shu vajdan qattiq to‘qnashgan edi.”³¹ Oradan 40yil vaqt o‘tib taqdir ularni yana G‘aznada, Malik-ash-sharobning mayxonasida uchrashtirdi. Bukri attor va Beruniyning o‘tmishdagi xotiralari asarning hozirgi hayotida xotirlash tarzida kiritilgan. Piri Bukriy va Sadafbibiga o‘rtasida kechgan hodisalar bo‘lib Beruniyning xayolini bevosita otmish kechinmalariga olib ketadi. Romanning shu o‘rinlarida xronikali syujetning bir qator belgilari namoyon bo‘ladi. “Unda asosiy syujet bilan yondosh holda yordamchi syujet chiziqlarini ham yurgizish, juda katta hayot materialini qamrab olish imkoniyati mavjud. Xronikali syujetda asarning “badiiy vaqti”i istalgancha kengaytirilishi mumkin: unda “parallel vaqt”da kechayotgan voqealarni tasvirlash, retrospeksiya – zamonda ortga qaytish usulidan foydalanish imkoniyatlari ancha keng. Shuningdek, xronikali syujetga qurilgan asarga syujetdan tashqari unsurlar (rivoyatlar, kiritma epizodlar va b.), muallif mushohadalari, tafsilotlarni tabiiy ravishda kiritish, badiiy matnga singdirish mumkin.”³² Yuqorida romandan keltirilgan parchada retroskopik usuldan foydalanilgan. Odil Yoqubov romannning ko‘pgina o‘rinlarida, xususan, Beruniy va Xatlibegimning uchrashuv sahnasida, Ibn Sino va uning hamqishloq do‘sti Shokalon bilan suhbat sahnalarida, Qutlug‘qadam va Mahmud G‘aznaviylarning suhbatlashuv jarayonlarida shu usuldan unumli foydalangan. Asarda syujetga bevosita aloqasi bo‘lmagan qistirma rivoyatlar ham bor. Shulardan biri Bobo Xurmo tilidan hikoya qilingan safarga chiqqan ikki do‘st haqidagi hikoyat. Hikoyatda shoh tanlashda adashgan xalqning ayanchli qismati haqida fikr yuritiladi. Bu hikoya orqali yozuvchi Bobo Xurmo tilidan hukmdorning oqil va adolatparvarligi xalning saviyasiga ham bog‘liq demoqchi menimcha. Bu hikoyat ham xronikali syujetning asardagi bir ko‘rinishi.

Yuqoridagi fikrimizda yozuvchi romanda voqealarning o‘zaro munosabatiga ko‘ra syujetning har ikkala turini ham qo‘llagan dedik va xronikali syujet chiziqlarini muhokama qildik. Endi asardagi syujet ikkinchi ko‘rinishini

³¹Odil Yoqubov. Ko‘hna dunyo. T.: “Sharq”, 2013, 23-bet. (Keyingi iqtiboslar shu asardan olinadi va “O‘sha manba” tarzida berilib, betlari ko‘rsatiladi).

³² D.Qur‘onov, Z.Mamajonov, M.Sheraliyeva. O‘sha manba, 290- bet.

konsentrik syujetga e'tibor qaratamiz. Asar voqealari asosini konsentrik syujet tashkil etadi. Syujetning bu turida asar voqealari bitta asosiy voqea atrofida aylanadi. "Ko'hna dunyo" romanining markazida turuvchi voqea bu – G'aznaviylar hukmdori Mahmud G'aznaviyning bedavo dardga yo'liqishi. Shu hodisa sabab boshqa voqealar ro'y beradi. Asarda barcha voqea-hodisalar shu voqea atrofida aylanadi. " Syujetning bu turi voqealarning konflikt asosida shiddat bilan rivojlanib, yechimga tomon intilishini taqozo qiladi. Konsentrik S. asarning shakl-kompozitsion jihatdan mukammal, o'qishli va qiziqarli bo'lishiga imkon beradi. Chunki bu nav syujet o'quvchi diqqatini bitta nuqtada tutib turadi, uning o'qish jarayonidagi faolligini oshiradi (mas., dedektiv asarlar). Konsentrik syujet nisbatan qisqa vaqt ichida kechgan voqealarni qamrashi, yondosh syujet chiziqlarini kiritish imkoniyatlarining kamligi bilan ham xarakterlanadi."³³ Asar syujetining xarakterini belgilashda vaqt ham muhim rol o'ynaydi. Chunki syujetni harakatlar majmui deb qabul qilsak, har qanday harakat muayyan vaqtda, muayyan o'rinda yuz beradi. Zero zamon va makon kategoriyalarisiz syujet yaxlitligini tasavvur etib bo'lmaydi.

"Ko'hna dunyo" romanidagi xronotoplarni hajman ikkiga bo'lish mumkin. Bular katta va kichik hajmdagi xronotoplar. Aslida bu xronotoplar butun-qism munosabatidagi xronotoplardir. Asardagi eng katta makon G'azna shahri sanaladi. U o'z ichida bir nechta mikromakonlardan tarkib topgan. Shularning boshlang'ich nuqtasi, asarda tub burilishlar yasaydigan xronotop, Malik-ash-Sharobning mayxonasidir. "**Mayxona**" xronotopi asardagi eng e'tiborli va ko'zga ko'rinarli xronotoplardan bittasi. Hajman kichik bo'lgan bu mayxona mohiyatan keng doirani qamrab olgan. Garchan vayrona kulba bo'lsa ham, lekin dovrug'i Mahmud G'aznaviy saroylarinikidan kam emas. G'aznada samoviy deb ta'riflanuvchi Osmon malikasi qasri qanchalik ma'lum va mashhur bo'lsa, bu kulbai vayrona ham xalq orasida shunchalik mashhur. Yozuvchi asarni mayxonaga eltuvchi yo'l tasviri bilan boshlaydi. Tasvir jarayonida G'aznaning o'sha davrdagi umumiy

³³ D. Qur'onov, Z. Mamajonov, M. Sheraliyeva. O'sha manba, 290-91- betlar.

ko‘rinishi haqida tasavvurga ega bo‘lamiz. “Shoirning kulbai vayronasi shaharning eng chekkasida, Bog‘i Firuz va Bog‘i Mahmud kabi ko‘rak bog‘lar, Osmon malikasi kabi marmar qasrlar, Ko‘shki davlat va Ko‘shki ma‘mur kabi tillakori saroylar, lojuvard gumbazli muhtasham machit va minoralar, sershovqin bozorlar, karvonsaroylar, bir-biriga tutashib ketgan obod rastalar kumush favvoralar o‘rnatilgan gulzor va maydonlardan yiroqda, gado va yo‘qsillar makoni bo‘lmish Afshon shol dahasining xilvat bir burchagida joylashgan.”³⁴ Yozuvchi saroy-u qasrlarning salobati, minora-yu masjidning ko‘rkamligi bilan Qutlug‘qadamning kulbai vayronasini o‘zaro qarshilantirib tasvirlashga harakat qilgan. Bu asarning badiiy tasvir kuchini yanada oshirgan. **“Mayxona”** xronotopi saroy va xalqni bog‘lab turadigan ko‘prik vazifasini o‘tagan. Oliy tabaqa vakillari va oddiy omma o‘rtasidagi munosabatlar shu xronotopdagi makon va zamon chizig‘ida o‘zaro tutashadi. Bu vayrona mamlakat siyosiy hayotida muhim rol o‘ynaydi. Bu yerdagi yo‘qsil, gadolar siyosiy o‘yinlarda faol ishtirok etadilar. “... bu qasshoq kulbaning o‘ziga xos ohangrabosi bor – u mulla mirquruq shoirlar, “ chiqitga chiqqan” xonanda va sozandalar, saroydan quvilgan munajjimlar, amir qahriga yo‘liqqan sarbozlar, qochqin g‘ulomlarning suyukli makoniga aylangan.”³⁵ Bu maskanga mamlakatning turli burchaklaridan darvesh-u tilanchilar oqib keladi. Malik ash-sharobning tayyorlagan mayi o‘zning xushta‘mligi bilan mamlakatda dovrug‘ taratgan. Kechalari bu maskanga to‘planadigan mayxo‘rlar masshoqlar chalgan kuylarni tinglab sel bo‘ladilar. “Mashoqlar davrasidagi setorchi, shunchaki oddiy setorchi emas, balki Bobo Setoriy deb chaqiriladi, g‘ijjakchisi oddiy g‘ijjakchi emas. Piri G‘ijjakiy, hofizi shunchaki hofiz emas, Bobo Hofiz, Bulbuliy, Shoir bo‘lsa nazm ahlining sultoni yoxud malikul kalom, deb ataladi. Hatto nay bobida ustasi farang gurganjlik bukri attor ham oddiy bukri emas, balki “Piri Bukriy” nomi bilan dong chiqargan.”³⁶ Tun yarmidan oshib butun shahar sukunatga cho‘mganda bu kulbayi vayronada haqiqiy hayot boshlanadi. Mayxo‘rlar davra qurib sirli suhbatlar quradilar. Bu suhbatlarda mamlakatda bo‘layotgan va bo‘lishi

³⁴Odil Yoqubov. Ko‘hna dunyo. O‘sha manba, 5-bet

³⁵Odil Yoqubov. Ko‘hna dunyo. O‘sha manba, 5-bet

³⁶ Odil Yoqubov. Ko‘hna dunyo. O‘sha manba, 5-6-betlar.

kutilayotgan turli ishlar haqida bahs-munozaralar bo‘ladi. Bu davradagi qalandar-u darveshlar siyosiy mish-mishlar va xufyona davlat ishlari haqida sirlashadilar. Ular so‘zlashadigan ba’zi davlat masalasiga oid sirlar hatto, sulton Mahmud G‘aznaviyga ham ma’lum emas. Bu mish-mishlarning qarsisi chin, qaysisi yolg‘on yolg‘iz – Ollohgagina ayon. Hayratlanarlisi shundaki, cho‘ntagida sariq chaqasi bo‘lmagan bu yo‘qsillarga na daxli bo‘lgan, na nafi tegadigan bu ishlarni ular jon quloqlari bilan tinglaydilar. Odil Yoqubovning “Ko‘hna dunyo” romanidagi mayxona makoni oddiygina sharobxo‘rlar maskani emas. Yozuvchi bejizga aynan shu manzilni tanlamagan. Ma’lumki, qadimda ayg‘oqchi va xufyalar oddiy tilanchi, gado, qalandar, darvesh qiyofasida bozor, karvonsaroy va shu kabi odamlar ko‘p, gavjum bo‘ladigan joylarda yurib, yashirinchalik ma’lumot yig‘ganlar. Yozuvchi mayxona tasviri ostida mamlakat hayotida muhim rol o‘ynaydigan siyosiy manzilni yaratgan. Vayronaning sohibi g‘arib mayxo‘rlar sultoni deb nom chiqardan Malik-ash-sharob ham oddiy mayxonachi niqobi ostida dorrussaltanatdagi barcha ishlardan boxabar bo‘lib, G‘aznaviylar davlatining ashaddiy dushmani bo‘lgan Imom Ismoil bilan aloqada bo‘lgan. Yuqorida ta’kidlab o‘tganimizdek, bu xronotop shaklan kichkina bo‘lsa-da, katta voqealar kechadigan, mamlakat hayotiga ulkan ta’sir o‘tkaza oladigan ijtimoiy-siyosiy maydon vazifasini bajaradi. **Mayxona xronotopi** ko‘p jihatlari bilan romanda muhim o‘rin tutadi. Romandagi bu xronotop ko‘lamining kengligi bilan ajralib turadi. Unda barcha tabaqadagi insonlarni uchratish mumkin. Zamonasining mashhur shoiri Abulqosim Firdavsiy ham bir paytlar shu mayxonaga tez-tez kelib turardi. “Shohnoma”dan baytlar o‘qib barchani xushnud etib turardi. Shomi g‘aribonda boshlanadigan mayxo‘rlikda nashavand juldurvoqi gadolar, mayib-majruh, serjahl darveshlar, tolibi ilmlar, sultonning suyukli madhiyabozi shoir Unsuriy, erkatoy vazir, mayparast Abulhasanak ham pinhona tashrif buyuradi. Goh-goh bu yerga manman degan bek-u bekdodlar, hatto allomai zamon Abu Rayhon Beruniy ham qadam ranjida qilib turardi. Bu maskanda yig‘iluvchi hangoma talablar kunlarini aysh-ishrat bilan o‘tkazadilar. Muallif bu xronotop zimmasiga jamiyat turmushidagi salmoqli muammolarni yuklashga erishadi.

O'zini ilm-ma'rifat yo'liga bag'ishlagan tolibi ilmlar, dunyoning noz-ne'matalridan kechib olloh yo'liga kirgan taqvodor-u parhezkor darveshlar, saltanat hayotining ustuni bo'lmish vazir-u amaldorlar tuni bilan sharobxo'rlik qilib mast-alast holga tushishlari juda xunuk holat. Jamiyatdagi axloqiy tanazzulni muallif shu tarzda ko'rsatadi. Ijtimoiy-siyosiy hayotdagi inqirozning ulkan sabablaridan biri ma'naviy yemirilish ekaniga urg'u beradi.

Xuddi shunday muammolarning tub ildizi sifatida **saroy xronotopi** ko'rsatiladi. Bu xronotopda Mahmud G'aznaviy, Abul Hasanak, Ali G'arib, Xatlibegim singari siyosiy hokimyat vakillari yashaydilar. Saroyda haqiqatdan ko'ra yolg'on, adolatdan ko'ra zulm, to'g'rilikdan ko'ra munofiqlik va fitna-fasod ustunroq. Bu xalq hayotiga doir qarorlar shu yerda qabul qilinadi. Ikki Buyuk olim Beruniy va Ibn Sino hayotining qora sahifalari ham shu xronotop bilan bog'liq. Bu xronotopning tasviri asarda shunchalik zebo tasvirlanganki, inson beixtiyor shunday go'zal, osmondek musaffo qasrda har qanday qora, qabih ishlar sodir bo'lishiga ishonmaydi. "Soyning o'ng yuzidagi keng sayhonlikni beqiyos, behudud Bog'i Feruz egallagan. Tungi yomg'irdan song bog' ham allaqanday yashnab ketgan, har joy-har joyda to'p-to'p bo'lib gullagan bodom va shaftolilar endigina kurtak chiqara boshlagan o'rik, olma, nok va behilar orasida xuddi oq, qizil, nimpushti liboslar yopingan malaklarni eslatadi. Hududsiz bog'ning mashriq tomonida oppoq marmar qasr osmonga bo'y cho'zgan. Nimasi bilandir oq qushga o'xshab ketadigan bu ko'rkam qasrning nomi o'ziga monand – Osmon malikasi! Osmon malikasining quyirog'ida ko'shki davlat saroyining tillakori gumbazlari yarqiraydi, undan nariroqda esa lashkar devoni va boshqa ma'muriy binolar saf tortgan..."³⁷

Tarixiy romanlardagi eng asosiy tasvir bu tarixiy joylar: qasr, saroy, o'rda, qal'a, qo'rg'on kabi tarixiy obilarning tasvirlanishidir. Ular asarning hayotiyligini, ishonarli chiqishini ta'minlaydi. San'atkorning sehrli qalami yordamida tarixdagi barcha narsalar: odam, tabiat va predmet bir nuqtada birlashadi, aniq zamon hamda

³⁷ Odil Yoqubov. Ko'hna dunyo. O'sha manba, 54-bet.

makon ko'zgusida ularning bevosita jonli qiyofasi namoyon bo'ladi. Buni san'atkor badiiy tasvirlar orqali ifodalab beradi. Binobarin, badiiy adabiyotda ham inson hayoti, tashqi olam ko'rinishlari muallifning ijodiy tafakkuri asosida qayta ishlanadi. G'azna shahrining asardagi ko'rinishi Odil Yoqubov badiiy tafakkurining mahsulidir. Muallif Mahmud G'aznaviyni faqat istilochilik, bosqinchilik, qonxo'rlik ishlarinigina emas, uning bunyodkorlik ishlarini ham **saroy xronotopi** orqali bergan. Odil Yoqubov bir yoqlama tasvirdan, bir yoqlama qarashdan qochgan. U saroy hayoti, undagi muhitni har jihatdan yoritishga harakat qilgan. Zamon va makon o'lchamini inobatga olib saroyning turli burchaklarida ro'y bergan xotiralarni qayta tiriltirgan. Maxsus saroy syujetlarini yaratgan. Saroy va qasrlarga xos zamon tarixiyligi, uning tarixiy roman taraqqiyotida muhim rol o'ynashi uchun imkon tug'diradi. Saroy qadim asrlardan kelgan va o'tmishga qaratilgan makon. Undagi zamon izlari tarixiylik tabatiga ega. Makon va zamon holat-belgilarining saroy, qasrlar bilan uzviy bog'liqligi, ayni xronotopning tarixan jadallashtirilganligi tarixiy romanning turli bosqichlaridagi tasvir mahsuldorligini ta'minlaydi. "Qal'a zamon bilan o'lchanadi, ayni paytda, tor tarixiy ma'no, yangi tarixiy o'tmish ma'nosida qal'a-feodal davri hukmdorlari (ya'ni o'tmishning tarixiy figuralar)ning makoni. Unda asrlar, avlodlar va ularni shakllantirgan turli qismlar – shart-sharoitlarda, qurol-yarog'larda, ajdodlar surati qo'yilgan muzeylarda, oilaviy arxivlarda, sulolalardagi insoniy munosabatlarda avlodlar huquqining davomiyligida aniq-ravshan saqlanadi."³⁸

³⁸ Михаил Бахтин. Ўша манба, 245-бет.

2.2. Odil Yoqubovning “Ulug‘bek xazinasi” romanida badiiy zamon hamda makon talqini.

XX asrning oltmishinchi yillariga kelib jamoatchilik orasida va matbuotda Mirzo Ulug‘bekning mashhur kutubxonasi qismati to‘g‘risida bahs boshlandi. Rus adabiyotshunosi I.Andronikov bu mavzuda maqola ham yaratadi. Uning maqolasida ilgari surilgan fikrlarga ko‘ra, astoyidil izlansa, bu nodir kutubxona topilishi mumkinligi bashorat qilinadi. Bu kabi fikr-mulohazalar albatta, jonkuyar adib Odil Yoqubovni ham befarq qoldirmaydi. Yozuvchi Ulug‘bek hayoti va faoliyatiga oid manbalarni, tarixiy faktlarni qidiradi. Dastavval, Ulug‘bek haqida qissa yozadi. Lekin bundan o‘zining ko‘ngli to‘lmaydi. Adib Ulug‘bek xususida yirikroq tarixiy asar yaratishga jazm etadi. Shu tariqa o‘zbek nasrining yana bir yirik namunasi “Ulug‘bek xazinasi” dunyoga keladi. Roman 1970-73-yillarda yozilgan. 1974-yilda esa yagona asar holida chop etiladi. Asar yozilganidan 3 yil o‘tib adib Hamza nomidagi Davlat mukofotiga sazovor bo‘ladi. 1994-yilda buyuk olim Mirzo Ulug‘bek tavvalludini nishonlash arafasida roman qayta ishlanib, nashr ettiriladi. Roman voqealari xronikal tarzda tasvirlanmagan. Unda Ulug‘bek hayotining so‘nggi kunlari qalamga olingan. Asarda Ulug‘bek hukmronligining fojeali yakunlanishi, mamlakatdagi ijtimoiy-siyosiy hayotning keskinlashuvi, reaksion kuchlar o‘rtasidagi kurashlar, oddiy xalq turmushidagi ayanchli holatlar, din ulamolari va ilm vakillari o‘rtasidagi nizolar keng yoritilgan. Yozuvchi asar qahramonlari boshdan kechirgan voqealarni tasvirlashga emas, balki ularning ichki olamini ochish asnosida Ulug‘bek davrining badiiy manzarasini chizishga e‘tibor qaraatadi.

Odil Yoqubov “Ulug‘bek xazinasi” romanida XV asrning birinchi yarmidagi tarixiy makon-u zamondagi voqealarni badiiy zamon va makonda tasvirlaydi. Roman syujeti voqealari makoni, asosan, temuriylar saltanatining markazi bo‘lgan Samarqand shahridir. Asar voqealari Ulug‘bekning eng sevimli shogirdi va yaqin do‘sti Alouddin Ali ibn Muhammad Qushchini tun zamoni (vaqti)da mikromakon (asosiy makon ichidagi kichik makon) ya’ni rasadxonadagi

xatti-harakatlarini tasvirlash bilan boshlanadi. “Vaqt tun yarmidan oshgan. Rasadxona teran sukutda. Odatdagiday, kechasi samoviy holatlarni kuzatib o‘tirgan mavlono Alouddin Ali ibn Muhammad Qushchi bir payt vujudida xiyol noxushlik sezib, o‘rnidan turdi. Lekin qolidagi olatlarni joyiga qo‘yib ulgurmagan ham ediki, qayerdadir yuqorida, birinchi oshyonada, oyoq tovushlari eshitildi. Bu tovushlar rasadxona tolibi ilmlarining sharpasiz odimlariga o‘xshamas, sipohlarning betakalluf qadamlarini eslatardi. Mavlono sergaklanib yuqori oshyonaning darchaday kichik o‘ymakor eshigiga tikildi, nim qorong‘i rasadxonada yo‘g‘on va o‘ktam ovoz yangradi”.³⁹ Modomiki, badiiy asarda inson qismati bilan bog‘liq voqea-hodisalar aks etar ekan, o‘sha voqea-hodisalarni yuzaga chiqaruvchi makon hamda zamonni ham yoddan chiqarmasligimiz lozim. Chunki inson borliqning, olamning, tabiatning aqlli mavjudotidir.

“O‘zi yashayotgan makondagi narsalarning ko‘lamini, o‘zaro joylashish tartibini yoki uzlukli yoki uzluksizligini, zamon voqea-hodisalarining ketma-ketligi jarayonining davomiyligini bilishga, anglashga yordam beradi. Uning bunday niyat-maqсадlarini amalga oshirishda badiiy asar muhim ahamiyat kasb etadi. Badiiy asar inson uchun makon va zamonni aniq va ravshanroq ko‘rish borasida ko‘zgu vazifasini o‘taydi. Bu ko‘zgu yordamida inson onggi, tafakkurida real hayot voqeligidagi makon va zamon manzarasidagi narsa-hodisalar jarayonini obrazlar orqali hayotiy modelini yaratadi”.⁴⁰

Yuqorida keltirilgan roman matnidagi makon, shu bilan birga, mikromakon tasvirida, tabiiyki yozuvchining birinchi navbatda, o‘tmishda yashagan buyuk allomalarimizning dunyoqarashi, tafakkuri, ilm-fan sohasidagi yutuqlari va shular bilan hamohanglikda o‘sha zamon (vaqt)dagi xatti-harakatlari, turish-turmushlari aks etadi. Tarixiy fakt va materiallar, tarixiy shaxs va to‘qima obrazlarning talqini, ruhiy kechinmalari romanning zamoniy va makoniy manzalarida yorqin namoyon bo‘lyapti. Tarixdan ma’lumki, Mirzo Ulug‘bek ma’rifatparvar, ilm-fanni

³⁹ Одил Ёкубов. Улуғбек хазинаси .Ғафур Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 1974 й, 3-бет. (Кейинги иқтибослар шу асардан олинади ва “Ўша манба” тарзида берилиб, бетлари кўрсатилади).

⁴⁰ Абдусамат Тўйчиев. Тарихий бадииятда макон ва зamon. “Шарқ юлдузи”// 2012, № 5. – Б. 17-21.

e'zozlovchi, obodonlashtirish ishlarini yaxshi ko'ruvchi hukmdor bo'lgan. U bobosi sohibqiron Amir Temur ishlarini davom ettirib, Samarqanddagi bir qator tarixiy obidalarining qurilishida boshchilik qilgan. "Chil ustun" ("Qirq ustun"), "Bog'i maydon" kabi bir necha bog' barpo etadi. Ulug'bek Obi rahmat arig'i yonida uch oshyonli rasadxona barpo etadi. Yozuvchi roman syujeti voqeasini, Ulug'bekning ilmiy faoliyati kechgan makon – rasadxonani, o'sha zamon (vaqt) voqea-hodisalari jarayonini kechgan joydan tasvirlashni boshlaydi. Mirzo Ulug'bek hayotining bir qator murakkabliklari, ziddiyat va jumboqlari shu shu xronotopda aks ettiladi. Ulug'bek rasadxonada erta-yu kech kuztishlar olib borib, koinot va sayyoralar sirlarini ochadi. Ulug'bek bu manzilga kelganida o'zining hukmdorligini unutib, zukko olim va mehribon ustozga aylanadi. Romanda berilgan **"rasadxona" xronotopi** Ulug'bek hayotining asosiy qismi kechadigan makon va zamonni o'zida qamrab olgan. Shu o'rinda badiiy makon va zamonning roman poetikasining ajralmas ekanligi namoyon bo'ladi. Chindan ham, zamon va makon badiiy adabiyotning muhim estetik kategoriyalaridan biri hisoblanadi. Chunki "har bir asar inson hayoti va tabiat olamining intihosi" ekan⁴¹, unda aks etayotgan inson umrining ma'lum bir qismi va shu vaqt ichida hayot kechirgan joyi tasvirlanadi. Odil Yoqubov ham Ulug'bek hayotining eng sermazmun damlari kechgan makon sifatida rasadxonani tanlaydi. Bu manzilda Ulug'bek jonini ham hech ikkilanmay almashtiradigan, umr bo'yi to'plab jonday asragan boyligi, xazinasini – kutubxonasi saqlanardi.

E'tibor qaratadigan bo'lsak roman voqealari tunda boshlanadi. Zamon (vaqt) badiiy harakatni yuzaga chiqaruvchi va ta'minlovchi asosiy vositadir. Vaqt (zamon) turli ko'rinish (bo'linish)larga ega. Erta, kech, tong, tush, sahar kabi tushunchalar orqali vaqtni belgilashga harakat qilamiz. Har bir bo'lingan vaqtning o'z ko'rinishi, tabiati va farqli jihati bor. Masalan, tong kunning boshlanishi yoki ramziy ma'noda yangi hayotning ibtidosi desak ham bo'ladi, tun esa, kunning yakuni, yorug'lik chekinib olamni zulmat qoplaydigan palla. Zamon makonning

⁴¹Qo'shjonov M. Ijod saboqlari. Toshkent. 1971, 176-bet.

qanday manzilligini belgilovchi asosiy vosita sifatida asar qahramonlarini ham tunday qora, zulmatli kunlar kutayotganiga ishora qilayotganday bo'ladi. Asar bevosita Ulug'bek hayotini tasvirlasada, voqealar uning tarjimai holiga bog'liq biror hodisa bilan emas, roman syujeti "rasadxonaning teran sukunati", tun qo'ynidagi holati, tungi sukunatni buzgan zalvorli qadam tovushlarini eshitib yuragi xijil bo'lgan mavlono Ali Qushchining tashvishli holati bilan boshlanadi. romandagi Ali Qushchi obrazi tarixiy shaxs bo'lib, buyuk matematik olim, Ulug'bekning ko'ngliga yaqin nadimi sifatida gavdalantiradi. Ali Qushchi asar syujetida katta rol o'ynaydigan obrazlardan biri. Uni romandagi sadoqat timsoli desak yanglishmaymiz. Tarixiy romanning asosiy va muhim shartlaridan bittasi tarixiy shaxslar timsolini ishonarli jonlashtirishdir. Ali Qushchi shunday obraz sifatida asarning markazida turadi.

Xronotop asar voqealarining kengligini, ko'lamdorligini ta'minlaydi, ularning tarixan aniqligini badiiy jihatdan dalillaydi. "Ulug'bek xazinasini" romani makon va zamonning badiiy ko'lamdorligi jihatidan serqirra va keng romandir. Yozuvchi syujet tizimi doirasida harakatlanayotgan obrazlarning faoliyati hamda xatti-harakatlari ularning xarakteri xususiyatlarini aniqroq, batafsilroq hamda psixologik jihatdan mukammal, to'la va jonli tasvirlashga imkon yaratib bergan. Yuqorida ta'kidlab o'tganimizdek, asar voqealari asosini Mirzo Ulug'bek hukmronligining so'nngi bir necha oyi tashkil etadi, ammo yozuvchi syujet chiziqlarini keltiradiki, unda asardagi zamon va o'tmish hayot hodisalari bir makonda jamlanadi. Xuddi shunday xronotoplardan biri usta Temur Samarqandiyning chilangarlik ustaxonasidir. "Ular kirgan joy – baland tepalikning yon bag'riga o'yib kirilgan katta g'or bo'lib, ikki yonida yana ikkita kichikroq o'ngurlar ko'rinar edi. Yo'lakdan kirgan joydagi o'ngurda temirchilik asbob-uskunalar, bosqon va sandon, uning tagida og'ir bolg'a va cho'kichlar, uzun temir qisqichlar, ombirlar yotar, chap tomondagi g'orda qozon-tovoq, qumg'on, choyidish, har xil obdastalar va boshqa ro'zg'or buyumlari terib qo'yilgan edi. Katta g'orning to'rida, po'stak yozilgan supada, boshiga chambarak kigiz qalpoq

kiygan, ko‘p yildan beri qaychi tegmagan soqoli ko‘ksiga tushgan bir chol, qo‘lida nayaki, qo‘y terisidan tikilgan keng po‘stinga o‘ranib, chordona qurib o‘tirardi.”⁴² Mazkur parchada biz temirchilik ustaxonasi va undagi asbob-uskunalar bilan tanishib chiqdik. O.Yoqubov ustaxonani tasvirlashda har bitta temirchining ishxonasida bo‘ladigan biror bir asbobni nazaridan chetda qoldirmaydi. Bu makon faqat shu xususiyati bilan emas, balki uch avlod vakillari qadam ranjida qilgan manzil sifatida bizga ahamiyatli. “ – Chol o‘ng tomonidagi ustiga po‘stin tashlangan katta to‘nkani ko‘rsatdi. – tortinmay o‘ltirgaysen, mavlono. Bu to‘nkada osiy bandaning adashi, sohibqiron Amir Temur o‘ltirib mana bu kosada ... - chol qo‘lini cho‘zib kitob terilgan tokchanning ostidan katta mis kosani oldi. – Mana shu kosada faqirga boda tutgan... mavlono...

Ali Qushchi endigina usta Temur Samarqandiy g‘orida turganini tushundi. Amir temur lashkarida xizmat qilgan bu odam to‘g‘risida Ali Qushchi ko‘p g‘alati hangomalar eshitgan, lekin o‘zini ko‘rmagan edi. – Ha, mavlono Ali Qushchi, - Siz Amir Temur Ko‘ragoniy o‘ltirgan to‘nkada o‘ltiribsiz. Amir Temurdan so‘ng bu to‘nkada uning farzandi Xoqoni Said Shohruh Mirzo o‘lturgan edi... - Chol siyrak, lekin o‘siq qoshlarini silab miyig‘ida kulimsiradi.”⁴³ Bir paytlar bu g‘orda sohibqiron Temur bilan usta Temur Samarqandiy o‘rtasida qizg‘in suhbatlar kechgan. Bu keksa temirchi o‘z davrida bir necha marotaba hukmdorning inoyatiga nozil bo‘lgan. Lekin sohibqiron Amir Temur Ustaning o‘zi yasagan qilichi bilan uning og‘asini o‘ldirgach, Ustaning hukmdordan ixlosi qaytib, minba‘d qilich yasamaslikka ont ichadi. U yasagan qilichlarning ta‘rifi Yamandan Yasangacha ketgan edi. Xoqoni Said Shohruh Mirzo ham uning huzuriga qilich yasatish maqsadida tashrif buyuradi, ammo vujudidan madonavorlik, kuch va iroda yog‘ilib turadigan bu usta Xoqoni Saidning taklifini rad etib, uning g‘azabiga duchor bo‘ladi. Shohruh Mirzo uni o‘limga hukm qiladi. Lekin Mirzo Ulug‘bek oraga tushib mardonavorlik va jasurlikda bobosi Amir Temurga monand bo‘lgan usta Temurni o‘limdan saqlab qoladi. Keyinchalik bu inson Ulug‘bekning noyob

⁴² Одил Ёқубов. Ўша манба, 82-бет.

⁴³ Одил Ёқубов. Ўша манба, 82-83-бетлар.

kutubxonasini, uning ilmiy merosini saqlab qolishda jonbozlik ko'rsatadi. Odil Yoqubov "Ulug'bek xazinasini" romanida obrazlarning yo'li keshishadigan nuqtalarni mantiqan bog'lashga harakat qilgan. Usta Temurning g'ori ham bir necha voqealar orqali obrazlarni o'zaro bog'laydi. Masalan, bir paytlar Sohibqironga dami o'tkir qilich yasab berib uning nazariga tushgan temirchi akasining Amir Temur tomonidan qatl etilganidan so'ng uning dushmaniga aylanadi. Shu sababli oradan yillar o'tib u Amir Temurning kenja o'g'li Xuroson hukmdori Shohruh Mirzoga qilich yasab berishdan bosh tortadi va Shohruh Mirzo tomonidan olinga hukm etiladi. Insonparvar hukmdor Ulug'bek Mirzo esa usta Temurning hayotini otasidan so'rab oladi. Shu tariqa Ulug'bek va usta orasida ko'rinmas rishta bog'lanadi. Ustada unga nisbatan ixlos uyg'onadi. Yozuvchi nuqtaga kelganda usta Temurga qarzini uzish imkoniyatini beradi. Uni qiyin bir vaziyatda Ulug'bekning shogirdi Ali Qushchi bilan uchrashtirdi. U Ulug'bekning kitoblari uchun temir sandiqlar yasab beradi va ularni Urgut tog'dagi g'orda yashirish uchun Ali Qushchiga yordam beradi. Romanda tarixiy shaxs obrazlaridan tashqari muallifning badiiy mahoratini ko'rsatuvchi badiiy to'qimalar ham mavjud. "Ulug'bek xazinasini" romanidagi badiiy makon va zamonda harakat qilayotgan tarixiy shaxs obrazi ham, badiiy toqima obraz ham yozuvchi goyasi, maqsad va niyatlariga xizmat qiladi. Romandagi toqima obrazlardan biri usta Temur obrazidir. Bu personaj obrazlar zanjiridagi asosiy halqalardan biri. Obrazlar sistemasining izchilligi asarning hayotiyligini ta'minlagan. "Obrazlar sistemasi – badiiy asardagi badiiy asardagi bir-biri bilan uzviy bog'langan obrazlar tizimi. Amaliyotda obrazlar sistemasi deganda ko'pincha asardagi personajlar tizimi nazarda tutiladi, biroq bu terminning tor ma'nosidir. Zero, obrazlar sistemasi faqat personajlar emas, badiiy voqelikni tashkil qilayotgan jami (narsa, hodisa, joy va h.) obrazlardan tarkib topadi. Ya'ni badiiy asardagi har bir obraz yaxlit sistemaning unsuri, shunga ko'ra, u butunning qismi sanaladi (q. badiiy obraz turlari) va o'zining mazmun-mohiyatini butun kontekstdagina to'liq namoyon etadi. Chunki obrazlar sistemasidagi barcha obrazlar bir-biri bilan uzviy aloqada bo'lib, ular bir-

birini to'ldiradi, izohlaydi, oydinlashtiradi"⁴⁴. "Ulug'bek xazinasini"dagi usta Temur va Ali Qushchi obrazlari ozaro aloqador emas, lekin o'rtada ularni bog'lab turuvchi yana bir obraz – Ulug'bek obrazi mavjud. Shu tufayli ular ustaxona manzilida uchrashadi. Samarqanddagi tahlikali zamon ularning uchrashuvi uchun zamin hozirlagan edi. Asardagi har bir xronotopning mantiqiy tugunlari asar davomida yechilib boradi. Hech bir makon, hech bir hodisa bejiz tanlanmagani kitobxonga oydinlashadi. Odil Yoqubovning "Ulug'bek xazinasini" romanidagi xronotoplar va unda harakatlanuvchi personajlar zamon taqozosi bilan yaralgan. Ularning hech biri davr o'lchovidan tashqarida emas. "Odam davrni yaratgani kabi davr ham insonni shakllantiradi. Yaratiq Yaratganning mevasi bo'lgani uchun ham unda yaratuvchining nuqsi qoladi. Ya'ni odam o'z davriga bir qadar o'xshaydi. Lekin odam ham, davr ham o'tkinchidir. Ularga xos xususiyatlarni tutib olish mushkul. Muayyan davrda yashab o'tgan insonlarning qiyofasi, ruhiy dunyosi o'sha vaqtda dunyoga kelgan asl badiiy asarlarda namoyon bo'ladi. Asarlarida davrga xos belgilarni tashiydigan qahramonlarni tasvirlash ulkan ijodkorlarning nasibasidir"⁴⁵.

Odil Yoqubov tarixiy shaxslarni o'z zamonasining xususiyatlaridan chekinmagan holda yangi davrga olib chiqa oldi. Uning qahramonlari o'tmishni bugungi kitobxonga yaqqol namoyon eta oladi. Asarni zamon va makonsiz tasavvur etish mumkin emas. Unda qatnashayotgan personajlar esa qalamga olingan davr, muhit va joyning aniq vakili sifatida namoyon bo'ladi. Bu badiiylikning muhim shartlaridan biri bo'lib, hayotiylik va xalqchilik fazilatlarini ta'minlashga yordam beradi. Adib asar qahramonlarining qismati misolida Ulug'bek davrining har bir jihatini ko'rsatishga harakat qiladi. Ali Qushchi, mavlono Muhiddin orqali olimlar hayotini, qalandar Qarnoqiy, Qashqir obrazlari orqali darvesh va xufyalar hayotini, Otamurod va usta Temur kabi oddiy hunarmandlar turmushini, Xo'ja Ubaydulloh, Nizomiddin Xomushlar tasviri bilan mutassib din vakillarining xatti-harakatlarini ochib berishga harakat qildi. "Ulug'bek xazinasini" romanida davrning suronli

⁴⁴D.Qur'онов, Z.Мамажонов, М.Шералиева. Оша манба, 207- бет.

⁴⁵Қозокбой Йўлдошев. Ёниқ сўз. Т.: "Янги аср авлоди", 2006 йил, 277-бет.

kurashlari, Ulug‘bekning sultonlik taxtida ketish fojeasi, o‘z farzandi – Abdulatif tufayli darbadarlikka yuz tutgan ota-shohning murakkab ruhiy holati, uning ilm yo‘lida qilgan ishlarini saqlab qolib, shogirdlari davom ettirish istagidagi harakatlari qalamga olinadi. Yozuvchi badiiy makon va zamon orqali real o‘tmish voqealarini badiiy tasvir orqali quyuqlashtiradi, zichlashtiradi, ixchamlashtiradi. Roman syujeti voqealari zamon (vaqt) birliklari kun-u tun, soat va daqiqalarga tarixiy fakt hamda materiallar asosida joylashtirilib, mantiqiy ketma-ketlikda tasvirlanadi. Bu esa, tarixiy haqiqatni yuzaga chiqishidagi badiiy makon va zamonning vazifasidir.

UMUMIY XULOSALAR

Odil Yoqubov asarlari shakl va mazmun jihatdan rang-barangdir. Adib asarlarida, ayniqsa, tarixiy obrazlarning badiiy talqini o'ziga xosligi va badiiy teranligi bilan ajralib turadi. Adib ijodini o'rganish natijasida tarixiy siymolarning yangicha qiyofasini, o'tmishning yangicha badiiy talqinini, xarakterlarning chuqur psixologik holatlarini kuzatib quyidagi umumiy nazariy xulosalarga keldik:

1. Odil Yoqubov ijodida teran lirizm epik sarhadlarning aniq yo'nalishini belgilashi, ayni paytda rivoya usuli ruhiy tahlilni maksimal ifodaga yaqinlashtiradi, umuminsoniy g'oyalar va ular ifodasining millat sajiyasidagi mezoni lirik ifoda hamda epik ko'lamni belgilaydi. Adib asarlari tahlilining estetik "yuqumliligi" ham aynan ifoda va tasvirda muvozanat-me'yorga qat'iy rioya qilish bilan bog'liq. Bu me'yor-munosabat ijodkor fitratidan davr umumlashmasiga o'tishda zinapoya vazifasini bajaradi;

2. Ijodkor barcha zamonlar uchun mushtarak muammolarni asarlarida talqin etgan hamda san'atkor o'tmish voqealarini o'z qalb prizmasidan o'tkazib tasvirlagan. Odil Yoqubov asarlarida muallif "men"i shaklidagi epik bayon usuli, nogahoniy tarzda paydo bo'ladigan kechinma mushohadaning erkinligi va kengligini yaqqol ko'zga tashlanadi. Asarlardagi katta va kichik xronotoplar xotira-xayol, monolog-muhokama kabi tasviriy vosita usullari yorqinroq ko'rsatilgan;

3. Odil Yoqubov asarlarida xarakter va kuchli psixologizm bo'rtib turadi. To'g'rirog'i, mazkur ikki tushuncha hayotni poetik tadqiq etishning muhim ikki qirrasini sifatida o'zaro izohlangan, dalillangan hamda tartibga solingan badiiylik darajasini yuzaga keltiradi, tarixiy hodisalarning xronologik takomilini, zamon va makon tamoyillarining mushtarakligini asar markaziga olib chiqadi;

4. Odil Yoqubov asarlari badiiy makon va zamon jihatdan o'zbek millati tarixining turli davrlarini o'z ichiga olgan. Aynan zamon-makon tushunchasi uning ijodida keng masshtabga ega - o'tmish, bugun va kelajak orasidagi dinamik o'zgarishlarni qamrab oladi. Timsolning badiiy vaqtga munosabati xotira, kundalik, monolog, dialog, nutqiy-ekspressiv vositalar yordamida badiiylashadi;

5. Adib asarlarida kuzatiladigan individual xususiyatlardan biri tarixiy koloritning cheklanganligida namoyon bo'ladi. Unga ko'ra, ijodkor aksar hollarda xronotop harakatlanish chiziqlarini badiiylashtirishga intiladi, bu bir tomondan, davrning to'liq manzaralarini chizish imkonini bersa, ikkinchi tomondan, ijodiy yondashuv erkinligini saqlashga yo'l ochadi. Mazkur holatda syujet tarixiy aniqlikni birlamchi o'ringa olib chiqmaydi, aksincha, umuminsoniy qadriyatlar hamda o'zaro munosabat zalvori yetakchi mavqe kasb etadi;

6. Yozuvchining "Ulug'bek xazinasini" romani markazida doimo Ulug'bek siymosi turadi, mazkur xarakter asar davomida teranlashib, murakkablashib hamda mukammallashib boradi; "Ko'hna dunyo" romanida ham Shoh obrazi mavjud, ammo u asarning markaziy qahramoni emas, bu roman markazida buyuk allomalar Beruniy va Ibn Sino obrazlari turadi. Har ikkala romanda tasvirlanayotgan voqea-hodisalarni aniq zamon va makonda yuz bergan, qahramonlarning xatti-harakatlari, ular orasidagi o'zaro munosabatlar ishonarli tasvirlangan. Zamon va makon bir-biri bilan chambarchas bog'liq holda namoyon bo'lgan.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

I. Normativ-huquqiy adabiyotlar:

1. Мирзиёев Ш. М. Буюк келажакимизни мард ва олийжаноб халқимиз билан бирга қурамиз.—Т.:Ўзбекистон, 2017.
2. Mirziyoev Sh. M. Tanqidiy tahlil, qat’iy tartib intizom va shaxsiy javobgarlik – har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo‘lishi kerak. –Т.: O‘zbekiston nashriyoti, 2017.
3. Karimov I.A. Yuksak ma’naviyat-yengilmas kuch.-Toshkent: Ma’naviyat, 2008. – 176 б.
4. Karimov I.A. O‘zbekiston mustaqillikka erishish ostonasida. – Toshkent: O‘zbekiston, 2011. – 440 b.
5. Barkamol avlod orzusi (“Kadrlar tayyorlash milliy dasturi”ni amalga oshirish borasidagi mulohazalar). –Т.: „Sharq” nashriyot-matbaa konserni, 1998.
6. „Ta’lim to‘g‘risida” O‘zbekiston Respublikasining qonuni. Oliy ta’lim me’yoriy hujjatlar to‘plami. –Т.: “Sharq” nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosh tahririyati, 2001.

II. Asosiy adabiyotlar

Monografiyalar, risola va o‘quv qo‘llanmalar, ilmiy-nazariy adabiyotlar.

1. Adabiy turlar va janrlar. Uch jildlik. 2-jild. Lirika. – Т.: Fan, 1992.
2. Ozod Sharafiddinov. Ijodni anglash baxti. Toshkent: “Sharq”, 2004.
3. Михаил Бахтин. Романда замон ва хронотоп шакллари. (Михаил Бахтин кашфиётлари) – Тошкент: ”Академнашр”, 2015, - 286 бет.
4. Qo‘shjonov M. Ijod saboqlari. Toshkent. 1971, - 176 bet.
5. Бобоев Т. Адабиётшунослик асослари. Т.:Ўзбекистон. 2002. - 133 бет.
6. Карим Баҳодир. Абдулла Қодирий. – Тошкент: Фан, 2006. –236 б.

7. Адабиёт назаряси. Икки томлик. 1-том. Адабий асар. Т., Фан, 1978. – 416 б
8. Қозоқбой Йўлдошев. Ёниқ сўз. Т.: ”Янги аср авлоди”, 2006 йил, -548 бет.
9. Д.Қуръонов, З.Мамажонов, М.Шералиева. Адабиётшунослик луғати. – Тошкент: ”Академнашр”, 2013, - 406 бет.
10. Султон И. Адабиёт назаряси. -Т.: Ўқитувчи, 2005й. 47-бет.
11. Ўзбекистон Миллий Энциклопедияси. Т.: Давлат илмий нашриёти, 2000 й.
12. Ўзбек адабиёти. Тўрт томлик. Тўртинчи том. Биринчи китоб. – Т.: Бадиий адабиёт нашриёти, 1960 й.
13. Quronov D., Rahmonov B. G’arb adabiy-tanqidiy tafakkuri tarixi ocherklari. Toshkent. 2008, -264 bet.
14. Quronov D., Rahmonov B. G’arb adabiy-tanqidiy tafakkuri tarixi ocherklari. Toshkent. 2008, 264-bet.
15. Жўрақулов.У. Назарий поэтика масалалари: муаллиф, жанр, хронотоп. Т.: Ғафур Ғулом номидаги нашриёт-матбаа ижодий уйи, 2015,- 353 б.
16. Bahodir Karim. Abdulla Qodiriy: Tanqid, Tahlil va Talqin. Toshkent : “Fan” nashriyoti, 2006, - 231 bet.
17. Каримов Н. XX аср адабиёти манзаралари. Тошкент: Ўзбекистон, 2008. – 536 б.
18. Мирвалиев С. Наср, давр ва қаҳрамон. Тошкент: Ғафур Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 1983,- 240 б.
19. Мирзаев С. Ҳаёт ва адабиёт. Тошкент: Шарқ, 2001. – 301 б.
20. Ўзбек тилининг имло луғати. Ш. Ш. Шоабдурахмонов таҳрири. – Т.: Фан, 1976.
21. Ҳотам Умутов. Адабиёт назаряси. Тошкент: Шарқ, 2002. – 256 б.

III. Ilmiy maqolalar:

1. Абдусамат Тўйчиев. Тарихий бадииятда макон ва замон. “Шарк юлдузи”// 2012, № 5. – Б. 17-21
2. Ulug‘ov A. Zamon va makon musavviri. “Sharq yulduzi ” jurnali// 2015-yil, №2. – Б. 12-18.
3. Karimov B. O‘tkan kunlar. “Jahon adabiyoti” jurnali// 2013, № 4. – Б. 11-14.
4. Жўрақулов.У. XX аср жаҳон адабиётшунослиги дарғаси. Жаҳон адабиёи . // 2013, №7 –Б.22-28.
5. Норматов У. Насрнинг мунаввар йўли. Жаҳон адабиёи .// 2006, №9

IV. Dissertatsiya va aftoreferatlar:

1. Исабаева Ш. Б. Ўзбек тарихий романларида характер руҳиятини тасвирлаш усуллари. Филология фанлари номзоди... дис. Автореф. Тошкент, 1995. - 26 б.
2. Қурбонов Т. Ж. Одил Ёқубовнинг портрет яратиш маҳорати. Филология фанлари номзоди... дис. Автореф. Тошкент, 1997. - 54 б.

V. Lug‘atlar:

1. 1.Фалсафа.Энциклопедик луғат. – Т.: Шарқ. 2010.
2. 2.Ўзбекистон Миллий Энцклопедияси. Т.: Давлат илмий нашриёти, 2000й.

VI. Badiiy adabiyotlar:

1. Одил Ёқубов. Улуғбек хазинаси .Ғафур Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 1974 й, - 318 бет.
2. Odil Yoqubov. Koʻhna dunyo. T.: “Sharq”, 2013, - 382 bet.
3. Abdulla Qodiriy. Tanlangan asarlar. – Toshkent. “Sharq” nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosh tahririyati, 2014, - 676 bet.

I. Internet saytlari:

1. www.ijod.uz
2. www.jahonadabiyoti.uz
3. www.kitob.uz
4. www.saviya.uz
5. www.ziyo.uz

Mundarija

KIRISH. Ishning umumiy tavsifi.....	2
I BOB. Badiiy adabiyotda zamon va makon tushunchasi	7
I. 1. Badiiy adabiyotda xronotopning ahamiyati	7
I. 2. Zamon va makonning obrazlarda ifodalanishi	19
II BOB. Tarixiy romanlarda badiiy zamon va makon uygʻunligi	25
II.1. Odil Yoqubovning “Koʻhna dunyo” romanida tarixiy makon va zamonni tasvirlash mahorati.....	25
II. 2. Odil Yoqubovning “Ulugʻbek xazinasi” romanida badiiy zamon hamda makon talqini	35
Xulosa	43
Foydalanilgan adabiyotlar roʻyxati	49